Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi psixologik xizmat metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiyligi jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to’g’ri keladi. Chunonchi, barcha tadqiqotchilar ham ijtimoiy psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda psixologik xizmat uchun muhim bo’lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab beradilar.[6]

Bular ichida psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni (G.M.Andreeva, B.D.Parigin, T.V.Snigireva, A.V.Filippov, P.N.SHixirev, V.A.Yadov) ta’kidlash joiz. O’zbekistonlik psixologlardan M.G.Davletshin, V.M.Karimova, B.R.Qodirov, G’B.SHoumarov, E.G’G’oziev, SH.R.Baratovlarni alohida qayd etish mumkin.[7]

Bu esa psixologik xizmatning bugungi kundagi ayrim dolzarb jihatlari, muammolari va uning yechimlari haqida o’ylashga, fikr mulohaza yuritishga va vazifalarini belgilab olishga nazariy-ilmiy va metodologik manba sifatida yordam beradi, deb o’ylaymiz. Ijtimoiy psixologiya metodologiyasi, tamoyillari va vazifalarini belgilashga qaratilgan tadqiqotlar mazmunida psixologik xizmat muammosining ham ma’lum ma’noda yashirinib yotganligini ko’ramiz.

Gap shundaki, har bir fanning rivojlanishi yangi dalillar asosida ilmiy yo’nalishni ochib beruvchi metodik qurilmalarning tuzilishi bilan bevosita bog’liqdir. Chunki, aniq metodologiya bo’lmagan sohada aniq amaliy natijalar ham bo’lmaydi. Zero, ijtimoiy psixologiya fanining yana bir muhim yangi vazifasi psixologik xizmat metodologiyasi bilan bog’liq nazariy, amaliy va empirik yo’nalishdagi tadqiqotlar ko’lamini

belgilashning bugungi kungacha nechog’lik hal qilinayotganligini tahlil qilishga to’g’ri keladi.[8]

XULOSA

Psixolog o’zining inson xulq-atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari haqidagi kasbiy bilimlariga, ularning o’quvchilar va kattalar, tengdoshlari bilan o’zaro munosabat xususiyatlariga, o’quvtarbiya jarayonini tashkil etishga bog’liqligiga tayanib, bolaga individual yondashuv imkoniyatlarini ta’minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlarning bo’lishi mumkin bo’lgan sabablarini psixologikpedagogik korreksiya qilish yo’llarini aniqlaydi. Bu bilan psixologik xizmat mакtabda o’quv tarbiya ishining mahsuldorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adizova T.M. Psixokorreksiya . – T.2005.
2. Asqarova N.A., Nishanova Z.T., Yakubova G.A., Rasulova Z.A. Bolalarda diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromining maxsus psixokorreksiya si. Monografiya. 2017.208 b.
3. Barotov SH.R. Psixologik xizmat. – Buxoro, 2018.
4. “Гиперактивные дети: Коррекция психомоторного развития”. Под. ред. М.Поссольта. пер. с нем. М.: Изд. центр “Академия”, 2004
5. Дубровина И.В.Рабочая книга школьного психолога. – М.: Просвещение, 1991. – 303 с.
6. Дубровина И.В. Школьная психологическая служба. –М.: Педагогика, 1991. – 232 с.
7. Дубровина И.В. Практическая психология в образовании. – М.: Педагогика, 1998.
8. Дубровина И.В. Я работаю психологом. –М. 2001.

Mittilayev Ibrohimjon

iqtisodiyot va qurilish instituti asissenti.

Yuldashev Islombek ilxomjon o‘gli

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnalogiyalar instituti
2-kurs sug‘urta ishi yo‘nalishi talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif pul muomalasi tushunchasi va uni tashkil etish usullari xaqida fikr yuritgan. Jumladan, Pul muomalasi bu pullarning naqd va naqd bo‘lмаган shakllardagi doiraviy aylanishi kabi masalalar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Pul, muomila, usul, munosabat, bank, funksiya, huquqiy, tartibot, tashkil etish, omil, tovar, qonun.

Ключевые слова: Деньги, сделка, метод, отношение, банк, функция, право, порядок, организация, фактор, товар, право.

Key words: Money, transaction, method, relationship, bank, function, legal, order, organization, factor, commodity, law.

Dunyoning barcha mamlakatlarida pul muomalasini amalga oshirish va tartibga solish Markaziy banklarga yuklatilgan. Bu erda Markaziy banklarning mustaqillik darajasi muhim o‘rin tutadi. Ayrim davlatlarda misol: Ispaniyada Markaziy bankning mustaqillik darajasi past. SHu jumladan Angliyada ham past. SHu sababli pul muomalasiga oid muhim qarorlarni qabul qilishda hukumatning roziligi talab qilinadi. Markaziy bank pul muomalasini amaldagi qonunchiliklarga qat’iy rioya qilgan holda boshqaradi. Bunda eng asosiy qonun hujjati bo‘lib “Markaziy bank” to‘g‘risidagi qonun hisoblanadi.

Pul muomalasi bu pullarning naqd va naqd bo‘lмаган shakllardagi doiraviy aylanishi bo‘lib, bunda pullar to‘lov vositasi va muomala vositasi funksiyalarini bajaradi. Pul muomalasi jarayonida ishtirok etadigan pullar 2 ga bo‘linadi.

1. Aktiv pullar-bevosita to‘lov jarayonidagi pullardir. SHu pullar tufayli T-P (tovar pul) yoki P-T jarayoni nihoyasiga etadi.

2. Passiv pullar-deganda aholining, korxonalarining va davlatning banklaridagi hisob raqamlarida turgan pullar hamda aholining qo‘lidagi naqd pullar tushuniladi.

Pul muomalasi davlat-huquqiy mazmunga ega. Davlat deyilishiga sabab shundaki, pul muomalasi barcha davlatlarda faqat davlat tomonidan tashkil qilinadi. Huquqiy deyilishiga sababi pul muomalasi bo‘yicha qabul qilingan me’yorlar va qoidalarning talablari pul muomalasida ishtirok etuvchi barcha subektlar uchun majburdir.

Bir guruh rus iqtisodchi olimlarining fikriga ko‘ra pul muomalasi faqat naqd pullarga xos. Ularning fikriga ko‘ra, “naqd pullarning tijorat banklarining kassasidan chiqib bir subektdan boshqasiga o‘tishi pul muomalasi” deyiladi. Ammo juda mashhur bo‘lgan darsliklar F. Mishkinning pullar, bank ishi va moliya bozorining iqtisodiy nazariyasi” nomli darsligida va edvin Dolanning “pullar, bank ishi va pul kredit siyosati” darsligida pul muomalasi pullarning muomala vositasida talqin qilingan. MDHga a’zo mamlakatlarning bank amaliyotida pul muomalasi deganda faqat naqd pullar bilan bog‘liq tartibotlar tushuniladi. Pul muomlasini tashkil qilish va tartibga solish bir nechta omillarga asoslanadi:

1. Ana shunday muhim omillardan biri pul-tovar munosabatlarining mavjudligi hisoblanadi.
2. Yana bir omil pul mablag‘larining tovarsiz harakatlanishi hisoblanadi. M-n X.YU.S lar va aholi davlatga soliq to‘lashi.
3. Pul muomlasining meyoriy huquqiy asoslarining mavjudligi.
4. Pul muomlasini tashkil qiluvchi va tartibga soluvchi institutlarning mavjudligidir. Odatda pul muomlasini Markaziy bank tomonidan tashkil qilinadi va tartibga solinadi. Lekin pul muomnalasini tashkil qilishda bank tizimining 2-chi pog‘onasida turuvchi tijorat banklari rol o‘ynaydi.

Pul massasi- yuridik va jismoniy shaxslarga hamda davlatga tegishli bo‘lgan naqd va naqdsiz ko‘rinishdagi pul mablag‘larining yig‘indisidir.

Pul multiplikatori – muomaladagi pul massasini qay darajada o‘sib yoki kamayib borayotganini ko‘rsatadi.

$$PM = \frac{M2}{Pul\ bazasi}$$

PM – pul multiplikatori

Pul bazasiga quyidagilar kiradi:

1. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan naqd pullar
2. Tijorat banklari tomonidan Markaziy bank foydasiga qilingan majburiy zaxira ajratmalari.

Markaziy banklar tijorat banklari jalb qilgan resurslarning bir qismini majburiy tartibda olib qo‘yadi. O‘zbekistonda tijorat banklarining majburiy zaxira ajratmalari summasini Markaziy bank ularning balansidan olib qo‘yadi. AQSHda va Evropada majburiy zaxira ajratmalari summasi tijorat banklarining balansida qoladi.

3. Tijorat banklarining Markaziy bankning balansida ochilgan nostro vakillik hisob raqamidagi pul mablag‘lari

Pul multiplikatori pul massasiniqanday suratlarda ko‘payotganligini ko‘rsatadi. SHu sababli Markaziy bank pul massasining dinamikasini va inflyatsiya darajasini kuzatish uchun unga pul multiplikatori kerak.

Pul massasini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri pul aylanish tezligi hisoblanadi.

$$V = \frac{\text{YaIM}}{\text{M2}}$$

YAim-nominal YAim inflyatsiya hisobga olingan.

Pul aylanish tezligini aniqlashda boshqa formulalar ham mavjud:

$$V = \frac{\text{YaIM} * 12}{n * \text{M2}}$$

n- tugagan yoki o‘tgan oylar soni

Pul massasi darajasini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan yana biri monetizatsiya koeffitsienti:

$$MK = \frac{\text{M2}}{\text{YaIM}} * 100\%$$

MK- monetizatsiya koeffitsienti

Xalqaro valyuta fondi ekspertlari fikricha bu ko‘rsatkich 30% bo‘lishi kerak.

Jahon bankining ekspertlari fikriga ko‘ra bu ko‘rsatkich 40% bo‘lishi kerak. O‘zbekistonda 2013-yil 1-yanvar holatiga monetizatsiya koeffisenti 22.3%ni tashkil qiladi.

Pul muomalasi qonuni.

1. Pul agregatlari, ularga tavsifnoma va pulni tartibga solish amaliyoti va unga ta’sir qiluvchi omillar.
2. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida pul muomalasini tartibga solish va barqarorlashtirishda Markaziy bankning roli.

1. Pul muomalasi qonuni

Qiymat qonuni va uning muomala doirasida yuzaga chiqish shakli – pul muomalasi qonuni tovar-pul munosabati mavjud bo‘lgan barcha ijtimoiy tuzumlarga xosdir. Qiymat shakllari va pul muomalasi taraqqiyot yo‘lini tahlil qilayotib, K. Marks pul muomalasining qo-nunini ochdi. Bu qonunga asosan muomala vositasi funktsiyasini amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan pul miqdori aniqlanadi.

Metallik pul muomalasida muomaladagi pul miqdori stixiyali tarzda, pullarning xazina funktsiyasi yordamida tartibga solib turilgan. Agar pulga ehtiyoj kamaysa, ortiqcha pullar (oltin tanga) muomaladan xazinaga oqib o‘tishi kuzatilgan yoki aksincha. SHunday qilib, muomaladagi pul miqdori kerakli darajada ushlab turilgan. Keyinchalik, muomalaga banknotalar chiqarilishi va ularning metal-lar (oltin yoki kumush)ga erkin almashinishi ham muomalada pulning ortiqcha miqdori bo‘lishini inkor etadi.

Agar muomalada oltinga almashinmaydigan banknotalar yoki qog‘oz pullar (xazina biletlari) amal qilsa, u holda naqd pul muomalasi pul muomalasi qonuniga asosan amalgam shadi.

Qog‘oz pullar miqdori muomala uchun kerak bo‘lgan oltin pul-larning nazariy miqdoriga teng bo‘lganda pul muomalasida hech qanday salbiy jarayonlar yuz bermaydi. YUqorida ko‘rsatilgan talab pulning barqarorligini ta’minlaydi, shuningdek, pul muomalasi mavjud bo‘lgan barcha ijtimoiy tuzumlarda o‘z kuchiga ega.

Pul muomalasi qonuni muomaladagi tovarlar massasi, ularning narx darajasi va pul muomalasi tezligi orasidagi iqtisodiy aloqa-dorlikni aks ettiradi. Bu qonunga asosan muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

Реализация қилинадиган товарлар нархи суммаси	<input type="checkbox"/>	Кредитга сотилган товарлар	<input type="checkbox"/>	+	Мажбуриятлар бўйича тўловлар- суммаси	<input type="checkbox"/>	Бир-бирини қоп- лайдиган тўлов- лар суммаси.
--	--------------------------	----------------------------------	--------------------------	---	---	--------------------------	--

Пулнинг мұомала ва тўлов воситаси сифатида ўртача айланиш тезлиги.

sh

rivoj u aqchi-zaqarotiga uchun buq suv tizimi uchun shuncha kam miqdorda pul muomalada uchun zarur bo‘lgan pul miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil – bu tovarlar va xizmatlar bahosi hisoblanadi. Pul miqdori tovarlar va xizmatlar bahosiga to‘g‘ri proportional, ya’ni tovarlar va xizmatlar bahosining oshishi muomalaga ko‘p pul chiqarishni talab qiladi. Pul miqdoriga ta’sir qiluvchi ikkinchi omil – bu pulning aylanish tezligi hisoblanadi. Bu omil pul miqdoriga teskari ta’sir ko‘rsatadi. Odatda, pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori shuncha kam talab qilinadi va aksincha.

Muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini kamaytirish uchun quyidagi choralarni amalgam oshirish muhimdir. Bular:–iste’mol kre-ditni rivojlantirish; kreditga qanchalik ko‘p tovar sotilsa, shuncha kam miqdorda pul muomalada kerak bo‘ladi;

- naqd pulsiz hisob - kitoblarning rivojlanishi;
- pullarning muomala tezligini oshirishga erishish va bosh-qalar.

Har bir jamiyat pul muomalasi qonuni talablarini hisobga ol-gan holda ish yuritishi zarur. CHunki pul muomalasi qonuning buzilishi pul barqarorligiga putur etkazadi. Bu holda muomalaga chiqarilgan pul miqdori muomaladagi tovarlar bahosidan oshib ke-tishi, ya’ni inflyatsiya bo‘lishiga yoki pul tanqisligiga (etishmov-chiligidagi) olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pul muomalasini ushlab turish shart-sharoitlari va qonuniyatlari ikki omilning o‘zaro ta’siri bilan, ya’ni xo‘jalikning pulga bo‘lgan ehtiyoji va amalda pullarning muomalaga borib tushishi bilan belgilanadi. Amaliyotda ko‘proq uchraydigan hol bu aylanmada xo‘jalikka kerak bo‘lganidan ko‘proq pulning

bo‘lishidir. Bu, albatta, pulning qadrsizlanishiga – pul birligi xarid qobiliyatining tushishiga olib keladi.

Foydanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi
2. «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g’risida»gi PF-5853-sonli Farmoni.
3. A.V. Vahobov, T.S. Malikov. Moliya.Darslik.Toshkent moliya instituti. - Toshkent: "Noshir", 2012.10-bet.
4. A.N. Antipenko. Sovershenstvovaniye sistemy analiza finansovoy ustoychivosti organizatsiy v usloviyakh innovatsionnogo razvitiya agropromyshlennogo kompleksa Respubliki Belarus: aftoreferat diss. na uch step. k.e.n. - M.: Minsk- 2015. 28 s.
5. R.S.SHokirov.Institutsionalnye osnovy sovershenstvovaniya rynochnykh otnosheniy v agrarnom sektore natsionalnoy ekonomiki: metodologiya, teoriya i praktika. Diss.na uch step. d.e.n. - T.: Dushanbe- 2021. 150-155 s.

GEKTOR MALONING “SANS FAMILLE” ASARIDAGI BOSH
QAHRAMONLAR KLASSIFIKATSIYASI

Tursunmuratova Dilnoza Turamuratovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston

Milliy universiteti, Fransuz filologiyasi kafedrasи katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada badiiy asalardagi ijobiy va salbiy qahramonlar tasniflanadi va ular ruhiyatining tarjimada ochib berilishi tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: yozuvchi uslubi, yozuvchi niyati, ruhiyat, ijobiy, salbiy qahramon

Аннотация: В статье классифицируются положительные и отрицательные персонажи художественной литературы и исследуется, как раскрывается их психика в переводе.

Ключевые слова: стиль писателя, замысел писателя, менталитет, положительные и отрицательные персонажи

Abstract: The article classifies positive and negative characters in fiction and examines how their psyche is revealed in translation.

Key words: writer's style, writer's intention, mentality, positive and negative characters

Bosh vazifasi insonshunoslik bo‘lmish badiiy adabiyotda psixologik tasvir borasida yozuvchilarning “qalamlari” bir birlaridan farq qiladi. “Psixologik tasvir turli ko‘rinishlarga ega boiishi mumkin. - deb yozadi N.G.Chernishevskiy. - Bir yozuvchini xarakterning qirralari ko‘proq qiziqtiradi, ikkinchisi ijtimoiy munosabatlar va maishiy to‘qnashuvlarning xarakterlarga ta’siri bilan qiziqadi; uchinchisi hislar bilan faoliyat orasidagi aloqaga, to‘rtinchisi ehtiroslar tahliliga, beshinchisini esa “qalb dialektikasi”qiziqtiradi”.

Yozuvchi uslubining shakllanishida uning qaysi tabaqa o‘quvchilariga mo‘ljallab yozishi ham katta ahamiyatga ega. Masalaning muhim tomoni shundaki, haqiqiy realistik asarda biz faqat alohida qahramonlarning xarakterinigina emas, yozuvchining o‘ziga xos ichki dunyosini ham his qilamiz. Busiz asardagi hayot tasviri bizga to‘liq yetib kelmaydi.

“Uslub atamasini keng va tor ma’noda tushunish mumkin. Uslub- keng ma’noda yozuvchi ijodidagi g’oyaviy-badiiy xususiyatlar birligi, tor ma’noda ifoda usuli ma’nosini bildiradi. Keng ma’noda tushuncha ijodkorning dunyoqarashi, badiiy asardagi g’oyalar, syujet va xarakterlar doirasi, badiiy tasvir vositalari tili va boshqalarni qamrab oladi.

Yozuvchi uslubi ijodning o‘ziga xos xususiyatlarga emas, balki hayotga munosabat, adabiyotning vazifasini anglash jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan yozuvchilarning

ijodidagi o’xshash g’oyaviy-badiiy xususiyatlar ham ba’zan uslub deb yuritiladi. Biroq bu jihatlar yaqin bo’lgan yozuvchilar g’ururini aniqroq qilib adabiy oqim deb atash mumkin.”

“Uslub termini adabiyotshunoslik bilan bir qatorda tilshunoslikda ham qo’llaniladi. Yozuvchi badiiy asar yaratar ekan uning o’ziga xos uslubi badiiy asarning barcha elementlarida namoyon bo’ladi. Asar syujeti, kompozitsiyasi, tili g’oyasi har bir elementida namoyon bo’ladi. Uslubni san’atkor asarining problematikasida, asar materialini tanlay bilishida, obrazlar sistemasida, xarakterlar yaratishda, konflikt tanlashida uning yechimida, muallif niyatini asar syujetga singdira bilishida ko’rish mumkin.”

Badiiy adabiyotning ajralmas bir bo’lagi bo’lgan bolalar adabiyoti o’ziga xos xususiyati bilan o’sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashga katta xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti haqida so’z borganda mashhur fransuz romanavisi Gektor Malo (Hector Malot 1830-1907) esimizga tushadi. Gektor Malo 1830-yil 20-mayda Ruandan (Rouen) uzoq bo’lmagan Buy (La Bouille) qishlog’ida notarius oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi beva bo’lib, ikkinchi marta bir kapitanning beva ayoliga uylangan. Ularning birinchi turmushidan har ikkalasida ikkitadan farzandlari bo’lib, Gektor esa ularning ikkinchi turmushidan bo’lgan kenjatoyi edi. Otasi juda qattiqqo’l va jiddiy bo’lgan, aksincha, onasi mehribon, maslahatgo’y, ko’ngli ochiq ayol bo’lib, belanchakdagi o’g’liga sayohatlar haqida hikoyalar aytib berar edi. U hikoyalar ta’sirida o’tkir didli bo’lib voyaga yetdi. U o’zining birinchi “les Amants” nomli romanini onasiga bag’ishlagan. G. Malo oltmishdan ortiq romanlar muallifidir. Bolalarga atalgan eng mashhur romanlari: “Romain Kalbris”, “En famille”, “Le Mousse”, “Sans Famille”.

Uning asarlari barchaga - kattalarga, kichiklar va o’smirlarga bag’ishlangan. Uning romanlari dunyoning o’nlab tillariga tarjima qilingan. Gektorning 1878 yilda nashr etilgan “Sans famille” qissasi yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. Bu qissa o’zbek tiliga ham o’girilgan. Qayerlardadir tarjimalar asliyatdan amalga oshirilgan bo’lsa, qayerlardadir vosita tillar orqali tarjima qilingan. 1965 yil Surayyo Saydalieva tomonidan o’zbekcha tarjima qilingan “Sayoq truppa” ham vosita til orqali, ya’ni asarning 1960 yil Qozog’iston Davlat nashriyoti tomonidan chop etilgan ruscha nusxasidan amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotda mana shu asar bosh qahramonlarining asarda tutgan o’rni, xarakterining tasnifi bilan tanishib chiqamiz. Biz G. Maloning “Sans famille” romanidagi protagonist personajlarni tahlil qildik.

Gektor Malo bolalarning hayoti, sarguzashtlari va kechinmalari haqida soddagina hikoya qilib, ularning ruhiyatini ochishda oddiy va haqqoniy usul qo’llab, yosh qahramonlarni qurshab turgan voqelikning realistik tasvirini yaratadi. Bolalar tuyg’ularining pokligi va sho’xliklarini tasvirlash adib uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi tasvirlagan olamda inson faqat bolaligi va o’smirligida qalb pokligini,

tuyg‘ularining samimiyligi va sofligini saqlab turadi, vaqt o‘tishi bilan bu hislatlar so‘nishi sir emas.

Dehqon, shaxtyor, sayoq aktyo’rlar, tovlamachilar va sof vijdonli kishilar - hammasi umumiy fo’nni tashkil qiluvchi personajlar bo’lib, shu bilan bir vaqtida ular mustaqil holda ham kitobxonda katta qiziqish tug’diradi. “Sans famille” “Sayoq truppa” kapitalistik mamlakatdagi xalqning og’ir hayotini tasvirlovchi asardir. Hozirgi davr bolalari uchun xuddi ana shu tomonlari ahamiyatli.

Gektor Maloning “Sans famille” asari Remi ismli bolaning hayoti va sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Remi uzoq vaqt ota-onasi kimligini bilmaydi va yetim boladek birovlarining eshigida yuradi. U Parijning ko’chalariga tashlab ketilgan va bir dehqon uni uyiga olib kelib, 8 yoshida uni Vitalis ismli sayoq yuradigan komediyachiga sotib yuboradi. Shu bilan ularning birqalikdagi Fransiya bo’ylab sarguzashtlari boshlanadi. Asar oxirida u o’zining haqiqiy oilasini topadi. “Sans famille ” shunday asarki uning sahnasida ko’plab personajlar katta ro’l o’ynaydi, uning qahramonlari bilan tanishib olsak, Remi - topib olingan bola; Vitalis - Jero’m Barberenden Remini sotib olgan sayoq musiqachi; Matiya - Remining eng yaqin do’sti, u Remiga haqiqiy oilasini topishda yordam bergen; Barberen xonim - Remini boqib olgan onasi; Milligan xonim - Remining haqiqiy onasi; Liza - soqov qizcha, Remining rafiqasi; Aken - bog’bon Remini parvarish qilgan ; Jero’m Barberen - Remini sayyor akrobat Vitalisga sotgan; makkor Jeyms Milligan - Remining amakisi; shavqatsiz Grafoli, vijdonsiz Driskollar oilasi va boshqalar... Shular bilan bir qatorda bu asarda hayvonlar - maymun Joli-Coeur , itlar - Capi, Dolce va Zerbino ham katta e’tibor bilan tasvirlang.Ular ham qissaning teng huquqli ishtirokchilaridir. Hayvonlar obrazi esda oson saqlanib qoladi. Ayniqsa bu baroq Kapiga taalluqli. Kitobxon Remining hayotini e’tibor bilan kuzatib borarkan, u bilan mamlakat bo’ylab fikran sayohat qiladi va fransuz xalqining hayoti, o’sha vaqtdagi urf-odatlari haqida ko’p narsani bilib oladi. G. Malo Remi va uning do’stlari yashayotgan jamiyatda pul hukmronligini ko’rsatib beradi. Boyishga intilish kishilami daxshatli jinoyatga boshlaydi. Kitob qahramonining taqdirini ham ko’p jihatdan ana shu sharoit belgilaydi. Boylikni qo’lga kiritishga intilish oila, qarindoshlik aloqalari, burj, oliy janoblik tushunchalaridan ustun turadi. Jeyms Milligan bunga yorqin misol bo’la oladi. U akasining boyliklariga ega bo’lish uchun akasining vorislari - jiyanlaridan nima qilib bo’lsa ham qutilish yo’llarini izlaydi. Jiyanlaridan biri - bu Artur jismoniy jihatdan nimjon bola. Uning amakisi Jeyms jiyaning o’limini kutib yashaydi. Ammo yana bir jiyani Remi uni ko’proq tashvishlantirardi. Shuning uchun ham manfur Driskol yordamida Remini ota-onasidan o’g’irlab ketadi.

Adib bu asarda xususiy mulkchilik davridagi hamma narsa sotib olinadigan va sotiladigan narsalar kabi bolalarni ham sotishlarini va sotib olishlarini tasvirlaydi. Remi ham uning do’sti Matiya ham sotib yuborilgan. Sotib olgan odam esa uni

kaltaklashga och qo'yishga tahqirlashga o'zini haq deb biladi. Shu sababdan doim och va kaltak zarbidan titrab yuradigan Matiya shifoxonaga tushishni o'zi uchun katta baxt deb hisoblaydi. Sog'lom va baquvvat Remi esa o'rnidan tura olmaydigan, ammo doim to'q va g'amxo'r onasi bo'lgan Arturga havas qiladi.

Oila, Remining tasavvuricha, ota-onas muhabbatini va g'amxo'rligining mujassamigina emas, balki mustahkam tayanch, og'ir va shavqatsiz hayot musibatlaridan himoyachi hamdir.

Romandagi ko'p voqealar xalqning ayanchli ahvolini ko'rsatadi va kapitalistik illatlarni fosh qiladi. Shaxtyo'rlarning ish sharoiti juda og'ir, o'z mehnati bilan kun kechiradigan kishilar ertangi kuniga ishonchsizlik bilan qarashadi. Mehnat qobiliyatini yo'qotgan Barberen nafaqa olishni orzu ham qila olmaydi. Korxona xo'jayinining ham davlatning ham uning taqdiri bilan ishi yo'q. mehnatkash Aken xonavayron bo'lganida unga hech kim yordam qo'lini cho'zmaydi. Aksincha, u oldin tuzilgan shartnomaga binoan olgan qarzini vaqtida to'lamagani uchun qamoqqa tushadi. Politsiya, sud, qamoq - hammasi oddiy kishilarga qarshi qaratilgan. Vitalisning qamoqqa olinishi bunga yorqin misol bo'la oladi. "Tartib saqllovchi" politsiyachi u bilan arzimagan narsa uchun janjal qiladi, qamoqqa oladi, sud esa begunoh muzikachini qamoq jazosiga mahkum qiladi. Vitalisning taqdiri burjuaziya jamiyatida kishilarni haqiqiy xizmatiga qarab qadrlamaslikni ko'rsatuvchi ishonchli dalil desak adashmaymiz. Bu burjuaziya olamida iste'dodning halok bo'lishini ko'rsatuvchi voqealardan biridir. Bir vaqtlar mashhur qo'shiqchi bo'lib hammaning hurmatini qozongan, ovozi bo'g'ilib qolgach, sayoq hayot kechirishga majbur bo'ladi, ochlik va qashshoqlikda o'lib ketadi.

Romandan Fransianing oddiy kishilarining ayanchli hayotini ko'rsatuvchi va kishilar taqdirini chin insoniy fazilatlar emas, balki pul va unvon, amal qiladigan burjuaziya jamiyatining basharisini fosh qiluvchi ko'plab misollar keltirish mumkin.

G. Malo asari Fransiya xalqining kapitalistik davrdagi hayotini o'rganishdagi kitobdir. Bu asar yozilganiga ancha vaqt bolgan bo'lsa ham so'qqabosh bolaning hayoti va sarguzashtlari haqida, kapitalistik jamiyatda oddiy kishilarning ayanchli taqdiri haqida haqqoniy hikoya qiluvchi bu kitobni kitobxonlar zo'r qiziqish bilan o'qiydilar.

Ijobiy obrazlarga - Remi, Vitalis, Barberen xonim, Matiya, Lizani kiritishimiz mumkin.

G. Maloning "Sans famille" romanini Surayyo Sayidaliyeva tarjimasi bilan solishtirib o'rganamiz. Asar bosh qahramoni Remi o'zini asrab olinganligini bilmay hamma qatori o'zining onasi bor deb o'ylab yurgan.

"Je suis un enfant trouvé. Mais, jusqu'à huit ans, j'ai su que, comme tous les autres enfants, j'avais une mère, car, lorsque je pleurais, il y avait une femme qui me serrait si doucement dans ses bras en me berçant, que mes larmes s'arrêtaient de couler. Jamais je ne me couchais dans mon lit sans qu'une femme vint m'embrasser, et, quand le vent de décembre collait la neige contre les vitres blanchies, elle me prenait les pieds

entre ses deux mains et elle restait à me les rechauffer en me chantant une chanson, dont je retrouve encore dans ma mémoire Pair et quelques paroles. Quand j'avais une querelle avec un de mes camarades, elle me faisait conter mes chagrins, et Presque toujours elle trouvait de bonnes paroles pour me consoler ou me donner raison.”

Gektor Maloning hikoya uslubi turli badiiy priemlarg boy, “Sans famille” romanidagi ko‘plab dramatik - fojeaviy va kulgili - sahnalarda adib dialog usulini tanlaydi. Chunki dialoglar asarda har bir qahramonning xarakterini, ruhiyatini, o‘y-orzularini ifodalaydi, o‘zining jo’shqinligi, ma’nodorligi, qisqaligi va ixchamligi bilan diqqatni jalb qiladi.

Tarjimada:

“Men tashlandiq bola ekanman. Lekin sakkiz yoshga kirgunimcha buni bilmasdim, boshqa bolalar kabi mening ham onam bor deb yurardim. Negaki, yig’laganimda bir ayol mehribonlik bilan meni bag’riga bosib yupatar, shunda ko’z yoshlарim darrov tinib qolardi. Kechqurun o’rnimga yotganimda bu ayol tepamga kelib peshonamdan o’pardi,sovuq qish paytlarida esa qo’shiq aytib o’tirib, qo’llari bilan sovuqotgan oyog’imni isitardi, uning usha paytlarda aytgan ashulalari hali-hali esimda. Dalada sigir boqib yurganimda momaqaldiroq bo’lib qolsa, u menga peshvoz chiqar, yomg’irdan pana qilmoqchi bo’lib jun yubkasini boshim bilan yelkamga tashlardi. Men unga o’z qayg’ularim, o’rtoqlarim bilan janjallahsganim to’g’risida gapirib berardim, u esa bir-ikki og’iz shirin gap bilan meni tinchlantirar, nasihat qilardi.”

Asliyatdagi ko’p narsalar o’zbekcha tarjimada tushirilib qoldirilgan. Chunki o’zbekcha tarjima vosita tili orqali tarjima qilingan, “en me berçant” so’zi rus tilida tushurib qoldirilganligi sababli o’zbekcha tarjimada ham aks etmagan va natijada “meni bag’riga bosib yupatar” kabi tarjima qilingan. Zero, fransuz tilidagi “bercer”, vosita tilida “баюкат”, o’zbek tilida esa “alla aytib uxlatmoq” kabi ma’noni beradi. Shu sababli “bir ayol mehribonlik bilan meni bag’riga bosib yupatardi “bir ayol meni bag’riga bosib ohista tebratar” ma’nosida o’girmoq maqsadga muvofiq bo’ladi va amaliyotga to‘g’ri keladi. Bu ayolning bolaga bo’lgan mehrini aniq ifoda etadi va aynan shuning uchun ham Remi (asar qahramoni) shu “bir ayolni o’z onasi deb o‘ylagan.

Asliyatdagi “Quand j’avais une querelle avec un de mes camarades, elle me faisait conter mes chagrins, et Presque toujours elle trouvait de bonnes paroles pour me consoler ou me donner raison.” O’zbekchaga “Men unga o’z qayg’ularim, o’rtoqlarim bilan janjallahsganim to’g’risida gapirib berardim, u esa bir-ikki og’iz shirin gap bilan meni tinchlantirar, nasihat qilardi.” Bu yerda Remi onasiga shikoyat qilmayapti, aksincha, Barberen oyi uning muammolarini surishtiryapti. Buning ahamiyati juda katta, chunki bu kitobxon ko’z o’ngida Remining xarakterini buzib ko’rsatadi, uni chaqma-chaqar va arzanda qilib qo’yadi. Bu misollardan ko’rinib turibdiki Barberen oyi kichkintoyi Remini juda yaxshi ko’radigan, mehribon onadir. Remi asrab olingan bola ekanligini bilganida ham uni bag’riga bosib yupatadi.

Mana bu misolda ko'rishimiz mumkin:

“Oh ! pas à l'hospice, m'écriai-je en me cramponnant à elle ; mère Barberin, pas à l'hospice, je t'en prie !

- Tu n'iras pas, mais à une condition, c'est que tu vas tout de suite dormir. Il ne faut pas, quand il rentrera, qu'il te trouve éveillé. Et, après m'avoir embrassé, elle me tourna le nez contre la muraille. J'aurais voulu m'endormir ;

- Xo'p, bermayman, lekin shu shart bilanki, sen hoziroq yotib uxlaysan. Jerom qaytib kelib, sening uyg'oq ekaningni ko'rishini istamayman. Oyim peshonamdan o'pib, yuzimni devor tomonga o'girib qo'ydi. Men tezroq uplashni xoxlardim. Lekin nihoyatda hayajonlanganimdan anchagacha uxlay olmadim.

Tarjimada:

“O, faqat yetimxonaga emas! — deb qichqirdim unga yopishib olib.— o'tinib so'rayman, oyijon, meni yetimxonaga bermang!

Yo'q, bolaginam, sen u yerga bormaysan. Men buning evini qilaman. Jerom toshyurak odam emas, g'am-tashvish, nochorlik uni shunga majbur qilyapti. Biz ishlaymiz, sen ham ishlaysan. Siz nimani xohlasangiz, o'shani qilaman. Faqat yetimxonaga bermang.

G. Maloning “Sans famille” romanidagi barcha o'brazlarni salbiy yoki ijobjiy emas balki murakkab o'braz sifatida tasniflash mumkin. Asar qahramonlari o'zлari yashayotgan ijtimoiy muhitning aks ettiradilar. Ularning insoniy ruhiyati ijtimoiy hayotning hosilasi sifatida qaralishi mumkin, shunday bo'lsada, haqiqiy insoniy tuyg'ular mana shunday qiyin sharoitda yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Чернишевский Н.Г. Поли. собр. соч., в 15 томах, т. 3. -М.: Госкомиздат, 1997. - С.423.
2. K. Quranboyev. Adabiyot nazaryasi. Nukus.; 2012. 25-bet
3. G. Malo. “Sayoq truppa”. 1965. 9-bet
4. Malot Hector. Sans famille. - Quebec : BeQ. La Bibliotheque electronique du Quebec, Collection *A tous les vents*. Volume 9 : version 1.2 Edition de reference Le Livre de Poche. - P.7-8.

**PEDAGOGIK YONDOSHUVDA FANLAR ARO BOG’LIQLIKNI
ZAMONAVIY TALQINDA YETKAZISH USULLARI**

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna
Surxondaryo viloyati
Termiz davlat pedagogika institeti
Geografiya va uni o’qitish metodikasi kafedrasи o’qituvchisi
Telefon: +998975332919

Annotatsiya – Ushbu maqolada iqtisodiyot fanining bugungi kunda jamiyatdagi o’z o’rni va uni puxta o’rganizshning qay darajada dolzarbliji va fanlar bilan bog’liqligi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar - Jismoniy shaxs, yuridik shaxs , daromad solig’i.

Iqtisodiy bilim asoslari fanini o’qitishda o’quvchidan kata ma’suliyat ,bilim,tajriba va shu bilan birga yuqori darajadagi fikr talab etiladi. Ushbu fan boshqa fan singari qadimiy yoki asrlar davomida boy tajribaga ega emas. Iqtisodiy bilim asoslari fani bugungi kunning dolzarb zamon bilan hamnafas bo’lgan ko’zgusidir. Bu fan mustaqillik e’lon qilingandan so’ng O’zbekistonni birinchi Prezidenti I.A. karimov tomonidan asos solingan va umumta’lim maktablarida o’qitala boshlandi.

Iqtisodiy bilim asoslari fanida o’qitilayotgan har bir mavzudagi keltirilgan faktlar, qoidalar, tahdidlar ham aynan shu klinikimizni ifoda etadi.Fanda o’tiladigan mavzularda o’quv fanlari bilan bog’liqlik juda ham ijobjiy natija bo’ladi. Chunki fanlar aro bog’liqlik o’qituvchidan yuksak darajadagi bilim, ilmiy dunyoqarash o’quvchilarga nafaqat ushbu fan balki boshqa fanlarga nisbatan qiziqish uyg’ota olish ma’suliyatini yuklaydi.O’quvchilarga esa ular dunyoqarashining kengayishi , fikrlarini teranlashishi , shu bilan birga kelajakda biror kasb egallashda boshqa fanlarni o’rni qay darajada ekanligini ham anglatadi. O’quvchilar ushbu fanlar aro aloqa bilan birga iqtisodiy jarayon bilan bevosita bog’liq bo’lib , ular ruhiyatini o’zgartiradi.

E. Sariqov va B. HAydarov muallifligi ostida chop etilgan iqtisodiy bilim asoslari 9-sinf darsligida 3-bob soliq turlari 15-mavzu: Daromad solig’I mavzusi misolida fikrlarimizni tahlil qilaylik.

Ushbu mavzu tarix, adabiyot, huquq, matematika, fizika fanlari bilan bog’liqdir. Dastlab o’qituvchi mavzuni boshlashdan oldin bizning buyuk allomalarimizdan biri bo’lgan Amir temurni soliq haqidagi fikrlarini aytish orqali tarix fani bog’laydilar. Chunki Amir temur soliq haqidagi “ temur tuzuklari” da shunday yozadi. “ Hirojni yig’ish vaqtida ikki vair tayinlansin , biri to’plagan molni yozib , Raiyat ahvolini tekshirib tursin, boj oluvchilar fuqaroga zulm qilib ularga zarar yetkazmang. Ikkinci vazir esa chiqim daftariga yozib yig’ilgan mollarni sipoh maoshiga taqsim qilsin”

deganlar. Bu tarixdan bizgacha dasturiamal bo’lib Amir temur davrida davlat xazinasida hisob-kitob ishlari aniq yo’lga qo’yilgan. Bu hozirgi zmondagи davlatning byudjet siyosatiga juda ham o’xshab ketadi.

So’ngra o’qituvchi Alisher Navoiy fikri orqali adabiyot faniga mavzuni bog’laydi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy oddiy odamlarga soliq to’lashdan bosh tortmaslikni maslahat bergenlar . bunday xatti harakat “o’z sheriklariga jafo qilishlik bilan barobardir” degan. Alisher Navoiyning soliq haqidagi boj , hiroj to’lash haqidagi fikrlari mustaqil davlatimiz soliq tizimi haqidagi bilimlarning tarixiy asoslarini bilib olishga yordam berishi tabiiydir .

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig’imlarni to’lashga majburdirlar .Bu so’zlar orqali o’quvchi huquq fani bilan bog’lagan holda ayrim iqtisodiy atamalar iqtisodiy atamalar aynan huquqshunoslik fani bilan bog’liqdir. Mavzuda asosan jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladigan daromad soliqlari haqida so’z ketar ekan avvalo har ikkalasiga ta’rif beramiz.

Jismoniy shaxs – o’zbekiston respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’lmagan shaxslar.

Yuridik shaxs – o’zbekiston respublikasi qonunlariga muvofiq tashkil etilgan korxonalar, firmalar, ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish muassasalari.

Bu aynan huquqiy mavzu bo’lganligi uchun Soliq kodeksi haqida gapirmaslikni iloji yo’q. Kelajakda soliqchi bo’lishni niyat qilgan o’quvchi albatta soliq kodeksi haqida maktab partasida ma’lumotga ega bo’ladi.

Mavzu bo’yicha daromad solig’ini hisoblashda keltirilgan misolga e’tibor beraylik. Firma o’z xodimga 2014 yil yanvar oyi uchun 1000000 so’m ish haqi hisoblanadi. Xodimni bu daromaddan davlat qancha soliq olishni ko’rib chiqamiz. 2014 yil yanvar oyida eng kam ish haqi 96105 so’mni tashkil etgan. Biz uni jadvaldan foydalanib 1 dan 6 barobargacha bo’lgan daromad uchun $7,5\% \times 96105 + 5 \times 96105 \times 16\% + (1000000 - 961050) \times 22\% = 36039,4 + 76884 + 8569 = 121492,4$ so’m daromad solig’I to’lashi kerak ekan. O’quvchiga matematik asos bilan ushbu amalni bajarishda eng kam ish haqini bilib daromad solig’ini ushslashni o’rgatish mumkin.

Bundan tashqari shu mavzu asosida ko’rsatilgan daromad solig’I stavkalari yillik bo’yicha ko’rsatilgan. Shu holat bo’yicha oddiy byudjet tashkilotda ishlaydigan , masalan, o’quvchi oylik daromadidan qancha daromad solig’I ushlanishi matematik bilim fizikaviy ko’nikma talab etiladi. Bunda eng kam ish haqi necha barobar ekanligi oddiy matematik yo’l bilan hisoblanadi va proporsiya tuziladi. Shunga ko’ra o’quvchi fizika masalalarni yechishda o’rgangan bilimdan foydalanib bajara oladi. Masalan :

Farhod 1200000 so'm ish haqi oladi. Eng kam ish haqi 149775 so'm bo'lsa daromad solig'I qancha ishlanishini oddiy matematik yo'l bilan hisoblaymiz.

$$149,1775 \times 8 = 1198.2 \text{ so'm}$$

$$1200000 - 100\%$$

$$X = 1200000 \times 16 = 19200000 = 192000 \text{ so'm}$$

$$X = 192000 \text{ so'm}$$

Shunday qilib o'quvchilarga ushbu mavzuni o'tishda esa iqtisodiy ko'rsatkichlarimiz yuqori bo'lib borishganligini kuzatish mumkin.

“Soliq tizimining eng muhim vazifasi ishlab chiqarishni rivojlanishiga moddiy hom, ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan to'plangan soliqlar mol mulkdan samarali foydalanishda rag'bathantiruvchi samarali ta'sir ko'rsatuvchidir” degan edilar o'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A Karimov.

Zero o'quvchilarga soliq haqidagi ilmiy bilimlar kelajakda byudjet va iqtisodiyot sohasini rivojlanishida yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, shuningdek Davlat ta'lim standartlarida o'z aksini topgan g'oyalar, maqsad vazifalardan kelib chiqilsa, o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim berish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bugungi kundagi real ehtiyojlardan ortda qolmoqda.

O'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli bo'lishini inobatga olgan holda hozirgi zamonaviy darslarni tashkil qilishda eng muhim fanlar yordamida darslarni tashkil qilishda eng muhim fanlar yordamida darslarni tashkil qilish kerak. Shuni aytish mumkinki, iqtisodiy bilim asoslari fanida mavzularni o'qitishda geografiyani ham bilish kerak bo'ladi, kimyo fani bilan ham uzviy bog'liq, masalalar yechish uchun matematika fani bilan, tarbiyaviy maqsadga erishish uchun Milliy istiqlol g'oyasi fani va AKT dan foydalanish uchun informatika fani, yangi ma'lumotlar olish uchun internetdan foydalanishga ingliz va rus tillarni mukammal bilish ta'lim jarayonini yangi sifat ko'rsatkichlariga erishish, yangi mavzuni bayon etish hamda boshqarish jarayonini tezlashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim jarayonida Milliy istiqlol g'oyasi, informatika va matematika fanlari bilan uzviy bog'lash natijasida ta'lim tamoyillari, mohiyati, konsepsiyalari, usullari va uslubiyatlari o'zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar to'plami ;

1. E.Sariqov , B.Haydarov “ Iqtisodiy bilim asoslari” Maktab darsligi 8-9-sinflar kitobi.
2. E.sariqov ‘iqtidod va biznes asoslari” Toshkent 2020 yil
3. B.Haydarov “Iqtisodiyot “ Toshkent 2021 yil
4. E.Sariqov,b.Haydarov “Iqtisodiy bilim asoslari “o'quv qo'lanmasi Toshkent 2021 yil

**METHODS OF CONVEYING INTERDEPENDENCE IN THE MODERN
INTERPRETATION OF SCIENCES IN PEDAGOGICAL APPROACH**

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

Surkhandarya region

Termez State Pedagogical Institute

Teacher of the Department of geography and methods of its teaching

Annotation: this article reflects on the role of the science of Economics in society today and on the level of relevance of its study and its connection with the sciences.

Keywords: individual, legal entity , income tax.

When teaching the science of fundamentals of economic knowledge ,the student is required to have kata responsibility,knowledge, experience, and at the same time a high level of thought. This science, like any other science, does not have a rich experience of antiquity or centuries. The science of the foundations of economic knowledge is a mirror of today, which is consistent with the current times. After the declaration of independence, the first president of Uzbekistan It was founded by I.A.Karimov and began to be taught in secondary schools.

The presented facts, rules, threats on each subject, which are taught in the subject of the basics of economic knowledge, also express this very day.In subjects to be studied in science, the connection with academic subjects will be a very positive result. Because the interdependence of the sciences is a high level of knowledge from the teacher, the scientific worldview imposes on students the responsibility to be able to arouse interest not only in this discipline, but also in relation to other disciplines.And to students , they mean the expansion of their worldview , the sharpening of their thoughts, and at the same time to what extent the role of other subjects in the future in the acquisition of a profession is. Students are directly related to the economic process along with the communication between these subjects , which change their psyche.

E. Sarikov and B. Haydarov authorship fundamentals of economic knowledge published in the textbook of the 9th grade Chapter 3 types of taxes topic 15: let's analyze our thoughts on the example of the subject of income tax.

This topic is related to history, literature, law, Mathematics, Physical Sciences. At first, the teacher connects the subject of history by telling Amir Temur, one of our great allomas before starting the subject, his thoughts about the tax. For this is what Amir temur writes about the tax in his " Temur traps". "To appoint two vairs at the time of heroj's Assembly, to write down the goods that one had gathered, and to examine the state of Raiyat, and do not harm the duty-takers by oppressing the citizen. And the second minister said, " let the cattle collected by writing in the book of Exodus be paid

for the salary of a mouse." From this history to our time, the program of accounting in the Treasury was clearly established under Amir Temur. This is very much like the budget policy of the state in the current time.

Then the teacher Alisher Navoi connects the subject to the science of literature through his thought.

Our great ancestor Alisher Navoi advised ordinary people not to refuse to pay taxes . such an act is" tantamount to abusing one's partner". It is natural that the thoughts of Alisher Navoi about the tax , about the payment of hiroj, will help to find out the historical basis of knowledge about the tax system of our independent state .

In Article 51 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, citizens are obliged to pay taxes and local levies established by law .Through these words, some economic terms, in which the reader associates with the science of law, are related precisely to the science of law. While the topic mainly talks about income taxes levied on individuals and legal entities, we will first give a definition to both.

An individual is a citizen of the Republic of Uzbekistan, foreign citizens and stateless persons.

Legal entity-enterprises, firms, production and service institutions established in accordance with the laws of the Republic of Uzbekistan.

Since this is exactly a legal topic, it is impossible not to talk about the tax code. In the future, a student who intends to become a taxpayer will definitely have information about the tax code in the school party.

Let's pay attention to the example presented when calculating income tax on the subject. The firm's salary is Rs 1000000 for January 2014 to its employee. Let's consider how much tax the employee receives from this income the state. The minimum wage was 96,105 in January 2014. We tell him that you need to catch 7.5% for earnings from 1 to 6 times using the table, which means that $5 \times 96105 \times 7.5\% + 5 \times 96105 \times 16\% + (1000000 - 961050) \times 22\% = 36039.4 + 76884 + 8569 = 121492.4$

it turns out that the sum must pay income tax. The student can be taught to catch income tax by knowing the minimum wage when performing this action on a mathematical basis.

In addition, the income tax rates indicated on the basis of the same subject are indicated on an annual basis. In this case , a simple budget works in an organization, for example, how much income tax is deducted from the monthly income of a student mathematical knowledge physical skills are required. In this case, how many times the minimum wage is calculated in a simple mathematical way, and proportions are drawn up. Accordingly, the student is able to perform physics using the knowledge learned in solving problems. For example: Farhad receives a salary of Rs 1200,000. We calculate in a simple mathematical way how much income tax is earned if the minimum wage is 149775 rubles. $149,1775 \times 8 = 1198.2$ sum

1200000 – 100%

$$X=1200000 \times 16 = 19200000 = 192000 \text{ sum}$$

X=192000 sum

Thus, readers can be observed that when passing this topic, our economic indicators have become higher.

” The most important task of the tax system is to have an effective influence on the development of production, stimulating the effective use of property in taxes collected from material hom, material, Natural, financial and labor resources, " said the first president of the Republic of Uzbekistan I.A Karimov.

Zero will help readers with the development of the budget and the field of Economics in the future with scientific knowledge about taxation.

The law of the Republic of Uzbekistan “on education”, as well as the ideas embodied in the state educational standards, based on the purpose tasks, the work on economic education for students lags behind the real needs of today.

Taking into account the fact that it will be interesting and understandable for students, it is necessary to organize classes with the help of the most important subjects in the organization of current modern classes. It can be said that when teaching topics in the science of the basics of economic knowledge, it will also be necessary to know geography, it is also inextricably linked with the science of chemistry, with the science of mathematics to solve issues , the science of the idea of national independence to achieve an educational goal and the science of computer science to use ICT, the use of In the process of education , the principles , essence , concepts, methods and methodologies of Education change as a result of continuous connection with the idea of national independence, Informatics and Mathematical Sciences.

Literatures:

1. E.Sarikov, B.Haydarov school textbook "fundamentals of economic Knowledge" Book of grades 8-9.
2. E.Sarikov 'talent and business basics" Tashkent 2020
3. B.Haydarov "economy" Tashkent 2021
4. E.Sarikov, B.Haydarov "fundamentals of economic knowledge" educational application Tashkent 2021

**O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA HAMKORLIGI ASOSIDA BO‘LAJAK
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TOLERANTLIKNI
RIVOJLANTIRISH.**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistri(Samarqand)
Toshboltayeva Umida Sobirovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Finlandiya tajribalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan fikr va mulohazalar yuritiladi. Maktab bola hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi dargoh bo‘lib, boshlang‘ich fundament va asoslar aynan shu yerda o‘z aksini topa boshlaydi. Darhaqiqat, boshlang‘ich sinfda olgan bilim, ko‘nikmalar bolaning qanday shaxs bo‘lib shakillanishida muhum ro‘l o‘ynaydi. Ko‘p millatli xalqimiz uchun ham bugungi kunda bolalarda tolerantlik ko‘nikmasini rivojlantirish, kelajakda yoshlarning komil shaxs bo‘lib yetishishida ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Finlandiya va O‘zbekistonda maktab - ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inidir.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston ta’lim tizimi, Finlandiya ta’lim tizimi, umumiy o‘rta ta’lim, tolerantlik, tolerantlik tafakkuri, g’oya, barkamol shaxs.

Bugungi kunda ta’lim tizimidaga e’tibor, unda olib borilayotgan isohotlar sezilarli darajada ortib bormoqda va har bir say-harakat o‘z samarasini ko‘rsatayotganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Darhaqiqat, ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta’limning bu bosqichiga bo‘lgan e’tibor yuqoridir. Zero boshlang‘ich ta’lim: maktab ostonasiga qadam qo‘ygan yosh go‘daklarning hayot yo‘lini to‘g’ri tashkil etishga qaratilgan ta’lim bosqichidir. Shu bilan birga bu bosqichda ham hali yechimini topmagan ayrim muammolar mavjud. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim bosqichiga ta’lim berayotgan yosh pedagoglar o‘zida qanday sifatlarni tarkib toptirishi, qanday sifatlarga javob bera olishi kerak? Yosh pedagoglar o‘quvchilarga qanday shaxsiy namuna bo‘la olishi kerak va bu qanday amalga oshirilmoqda?.

Bugun Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga bilim, ko‘nikma va malakalar berib borilishi bilan birgalikda, ularni haqiqiy pedagogga hos bo‘lgan sifatlar bilan ham boyitib borish zarur. Bunda nafaqat o‘z tajribalarimizni o‘rganish balki, chet eldag‘i ilg‘or tajribalarni ham o‘rganish, tahlil qilish va amaliyotga tadbiq etish zaruratini ko‘rsatadi. Chet el tajribasi haqida so‘z yuritar ekanmiz, hamkorlik ishlari olib borilayotgan Finlandiya ta’lim tizimi bilan davom ettirish joiz. Hukumatning 2021-yil 29-iyundagi 408-sonli qarori bilan Samarqand davlat universitetining Pedagogika instituti negizida Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti tashkil etildi. Va bugungi

kunda institutda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tahlil olmoqda. Finlandiya ta'lim tizimiga to'xtaladigan bo'lsak, dastlab Finlandiya ta'lim tizimida ham bir qator kamchiliklar mavjud edi. Finlandiya ta'lim vaziri Li Anderson aytishicha, aslida Finlandiya ta'lim tizimi ham boshqa davlatlarnikidan farq qilmasdi, ta'lim yodlab o'rghanishga asoslangan va qattiq standartlashtirilgan edi. Aynan 1960-yillar oxiriga kelib ta'lim sohasida boshlanga tizimli islohotlar 2000-yillardan boshlab Finlandiya ta'lim ko'rsatkichlari dunyoda eng yuqorilardan biriga aylanishiga olib keldi.

Finlandiya maktablarni bir jamiyatga aylantirish uchun katta e'tibor qaratdi va bu yo'lida avvalo unga munosib o'qituvchilarni tayyorlashga kirishdi. O'qituvchilarni tayyorlash 5 yillik dasturga ya'ni 3 yil bakalavr va 2 yil magistratura darajasiga ega bo'lish majburiyati qoyildi. Finlandiyada pedagogika yo'naliishiga eng qiyin qabul joriy etilgan bo'lib, talabgorlarning faqat 10 foizigina bu sinovlardan muvaffaqiyatli o'ta oladi. O'qituvchilik yuridik va iqtisodiy soha kabi nufuzli yo'naliish bo'lib, tavakkal qilib topshirib kirib ketadigan yo'naliish hisoblanmaydi. Finlar 30-40-yil davomida yuqori darajali talablarga asosan o'qitish tizimi orqali mamlakatning barcha maktablari yuqori darajadagi o'qituvchilar bilan taminlandi. Natijada ta'lim tizimida belgilab olingan jiddiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Davlat ma'lum standartlar belgilab bermaydi, aksincha o'qituvchi mahoratiga ishonch bildirishadi. Malakali pedagoglar berilgan tavsiyalar bo'yicha o'z o'quvchilarining xususiyatlaridan kelib chiqib dars jarayonini tashkillashtirishadi. Finlandiya umumta'lim tizimi yetti tamoyillarga asoslangan holda tashkil etilgan. Tenglik tamoyili umumta'lim tizimining har bir bo'g'inida sezilib turadi. Bunda biridan ikkinchisi yaxshiroq degan tushuncha bo'lmaydi va bu jihat bolalarga boshlang'ich ta'limdan singdirilib boriladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida tenglik tamoyilini qo'llay olishda undan tolerantlik malakasiga talab seziladi. Biz ko'p millatli xalq ekanligimizni hisobga olsak, bo'lajak yosh pedagogda kuchli sabr va mahorat bo'lishi lozimdir. Lekin bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bu sifat qay darajada shakillanmoqda va bu bilimlarni ular amaliyotda qo'llay oladimi? Umuman tolerantlikning pedagogik faoliyatda ahamiyati qanday?

Tolerantlik- (lot. tolerantia — sabr-toqat), bag'rikenglik — o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish. Hozirgi dunyoda tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Tolerantlik tushunchasiga bir qadar kengroq qarash tadqiqotchi E.Karimova tomonidan berilgan tarifda uchraydi. Uning fikricha "...tolerantlik odamlarga mehr muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, uning shaxs sifatida erkinligi va huquqlarini taminlash kabi g'oyalar bilan sug'orilgan diniy, falsafiy, huquqiy, axloqiy va barcha insoniy qarashlardan iborat progressiv dunyoqarashning asosi bo'lib hizmat qiladi.

1995-yil 25-oktabrda, 16- noyabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta’lim fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzulmasi YUNESKO Bosh Konfferensiyasining Parijdagi yigirma sakizinchı sessiyasida “Bag'rikenglik tamoyllari deklaratsiyasi” qabul qilishdi. Uning 1-moddasi “Bag'rikenglik tushunchasi” deb belgilanib, uning ma'nosи quyidagi to'rt qismda ko'rsatilib berilgan .

1-modda . Bag'rikenglik tushunchasi.

1.1 Bag'rikenglik-bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishni, qabul qilishni va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi . Bag'rikenglik turli tumandagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik-tinchlikka erishishini musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

1.2. Bag'rikenglik- yon berish yoki xushomad emas. Bag'rikenglik-eng avvalo, insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Hech qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi.

Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

1.3 Bag'rikenglik-inson huquqlarini qaror toptirish, pluralizm, (shu jumladan, madaniy pluralizim) demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko'maklashishi majburiyatidir. Bag'rikenglik - aqidabozlikdan haqiqatni mutloqlashtirishdan voz kechishini anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjalarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

1.4 Bag'rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiyadolatsizlikka nisbatan sabr toqatli munosabatda bo'lishni o'z imon-e'tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e'tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim va boshqalar ham bu huquqqa ega ekanligini tan olmog'i lozim.

Ma'lumki hozirgi davrda turli mafkuraviy ziddiyatlarning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu esa sog'lom tafakkur, milliy manfaatlar asosida qurilgan g'oyalarni shakllantirishga bo'lган ehtiyojni kuchaytiradi. Tolerantlik aynan ana shunday sog'lom fikr va g'oya sifatida insonlararo munosabatlarni tartibga solib, ularni o'zaro sog'lom muloqot qilishga o'rgatadi.

O'quvchi-yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirish ularni turli mafkuraviy yot g'oyalardan asrash va ularni bag'rikenglik asosida hayotga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Tolerantlik tafakkuri butun aholi, xususan, o'quvchi – yoshlar ongida shakllantirish pedagogika fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biriga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Finlandiya tajribalarini hayotga tadbiq etar ekanmiz, avvalo bunga o’zimiz tayyor bo’lishimiz, amal qilishimiz, namuna bo’la olishimiz lozim. Finlandiya tenglik tamoyili mazmunida hamma teng va qadrli ekanligi yoritiladi. Ta’lim bosh maqsadlaridan biri barkamol shaxs tarbiyalash ekan, barkamol shaxs nafaqat bilimli, shijoatkor bo’lishi balki, insonlarni hurmat qila olishi,adolatli va keng dunyoqarashli bo’lishi ham lozimdir. Barkamol shaxsni tarbiyalash uchun albatta bunga munosib kadrlarga e’htiyoj seziladi. Boshlang’ich ta’lim bola uchun poydevor bo’lib, uni mustahkam binoga aylantirish uchun o’qituvchi bor kuch-bilimini qo’llaydi. O’qituvchi bilimi qanchalik keng va boy bo’lsa, bolaga beradigan ta’lim ham sermahsul bo’ladi. Shu sababli bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining bilimi, pedagogik mahoratini amaliyatda qo’llay olishi muhim ahamiyatga egadir. Unib chiqayotgan yosh niholni to’gri parvarish qilish bog’bon uchun qanchalik qiyin bolganidek, maktab ostonasiga ilk qadam qo’ygan qorako’zlarni tarbiyalash pedagogga ham katta ma’suliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. I.A.Karimov “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin”. T. O’zbekiston-1998
2. I. A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T Ma’naviyat-2008.
3. D.A.Adimov “Jadidchilik va diniy bag’rikenglik”. T. Tafakkur-2005
4. www.ziyonet.uz
5. www.arxiv.uz
6. www.lex.uz

THE IMPORTANCE OF COMPUTER PROGRAMS THAT HELP STUDENTS LEARN IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.

Mirkomilov Doniyorjon Maxamatibragimovich

Assistant of the Department of Computer Systems of FBTUIT

Qobulov Abdujalil Zoxidxo'ja o'gli

Student of group 619-21 of FBTUIT

Annotation. This article provides information about the importance of programs that help in the education system and the future stages of its development.

Keywords: personalized learning, accessibility and inclusivity, interactive and engaging learning, real-time feedback and assessment

Introduction

In today's rapidly evolving digital age, technology has transformed nearly every aspect of our lives, including the way we educate ourselves. One of the most significant advancements in the field of education is the integration of computer programs that aid students in their learning journey. These innovative tools have revolutionized traditional teaching methods, offering a wide range of benefits that have a profound impact on students, educators, and the entire educational system. In this article, we will explore the importance of computer programs in education and how they are shaping the future of learning.

One of the most compelling advantages of computer programs in education is the ability to tailor learning experiences to individual students. Traditional classroom settings often struggle to accommodate the diverse learning needs of students, but computer programs can adapt to each student's pace and learning style. With the help of algorithms and data analysis, these programs can identify areas where a student may be struggling and provide additional support, or conversely, offer more challenging material to those who excel. This personalized approach fosters a deeper understanding of the subject matter and ensures that no student is left behind.

Computer programs also play a crucial role in promoting accessibility and inclusivity in education. They enable students with disabilities to participate in mainstream classrooms by offering assistive features such as text-to-speech, speech-to-text, and adjustable font sizes. Moreover, online learning platforms break down geographical barriers, allowing students from all over the world to access quality education. This inclusivity fosters diversity and enriches the educational experience by bringing together students from different backgrounds and perspectives.

Traditional textbooks and lectures can often feel dry and unengaging for students. Computer programs, on the other hand, leverage multimedia elements, gamification,

and interactive simulations to make learning fun and captivating. By incorporating elements like quizzes, virtual labs, and educational games, these programs motivate students to actively participate in the learning process. This not only enhances retention but also cultivates a lifelong love for learning.

Computer programs provide instant feedback on students' performance, enabling them to gauge their understanding of the material immediately. This immediate feedback helps students identify areas where they need improvement and adjust their learning strategies accordingly. Educators also benefit from this real-time assessment data, allowing them to tailor their teaching methods and materials to address specific student needs more effectively.

The integration of computer programs in education also optimizes resource management. Digital textbooks, online resources, and virtual classrooms reduce the need for physical infrastructure and printed materials, making education more sustainable and cost-effective. Schools and institutions can redirect their resources towards improving the quality of education, hiring skilled educators, and investing in technology infrastructure. In today's fast-paced, knowledge-based economy, the importance of lifelong learning cannot be overstated. Computer programs empower students to acquire essential digital skills, critical thinking abilities, and problem-solving techniques that are highly relevant in the modern workforce. They also facilitate self-paced learning, allowing individuals to upskill and reskill at their own convenience, keeping them competitive in a rapidly changing job market.

Conclusion

Computer programs have become invaluable tools in the educational system, offering personalized learning experiences, accessibility, engagement, real-time assessment, and resource optimization. These programs not only benefit students by enhancing their educational journey but also empower educators to provide more effective instruction. As we continue to embrace technology in education, it is essential to recognize the importance of these programs in shaping the future of learning, preparing students for the challenges of the digital age, and fostering a more inclusive and adaptable educational system.

References

1. PROBLEMS IN THE MANAGEMENT OF TECHNOLOGICAL PROCESSES. D Mirkomilov, A Rakimov. Research and implementation
2. EFFECTIVE METHODS OF USING SIMULATION MODELS IN THE LESSON. D Mirkomilov, Scientific Impulse 2 (14), 49-51
3. PROSPECTS FOR THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. D Mirkomilov. Educational Research in Universal Sciences 2 (12), 275-278
4. ИСЧЕЗНОВЕНИЕ ПРОФЕССИЙ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ. Д Миркомилов, М Муйдинов. Research and implementation

THE BENEFITS OF HIKING TOURISM FOR HUMAN LIFE AND ITS ROLE IN WORLD COUNTRIES

Khamidov Asilbek Umuruzokovich

Termez State University

Student of the Faculty of Tourism and economics

ahamidov383@gmail.com

ABSTRACT

This article covers hiking tourism and improves blood circulation mainly in human organism as necessary for human life. tourism is a non-traditional form of tourism that attracts people.

Keywords: tourism, hiking tourism, benefits, negative aspects, development.

INTRODUCTION

Tourism is the journey that people make from one place to another for various reasons within a certain period of time. Tourism soda means to understand the world, to understand the world, at the same time to get on the world stage.¹ The history of tourism goes back to the distant past, initially the basis of people's travel was education, the search for new lands, trade. It was considered an antiquity of Tourism. The rapid development of tourism in the later period took place in Europe, in the 17th century, when young nobles from Western and Northern European countries made a trip called The Grand Tour² it was followed by the foundation stones for modern tourism. In later periods, the improvement of transport systems became important for the development of Tourism. In a rapidly developing Europe, connected by railways, the increasing availability of free time in the 19th-century self-contained Europeans made it necessary to travel, and they would travel all over Europe. (Draw 1) The first travel agency was founded by Thomas Cook, on excursions and weekends, from his own transport, food and accommodation offered tourist packages consisting of. The 20th century was the Golden Age of tourism, as the discovery of the bus, car and samalyot in this period followed the collapse of prices. Tourism continued to thrive in the following period. Tourism is an important source of many new jobs, additional income creation, entrepreneurial activity and accelerated development of the economy of the regions, rich and diverse cultural-historical, areas of effective use of nature objects (sightseeing, hearing) and viewing on the basis of nature protection and environmental security³.

Figure 1. Train. The end of the XIX

¹ Karimov I.A "from the way of building". T,: Uzbekistan, 1996y-P. 285

² <https://www.europeana.eu/en/blog/travelling-for-pleasure-a-brief-history-of-tourism>

³ S.N.Abdurahimov Investment is the power that develops the tourism of the country Thematics Journal of Business Management 2021-12-14 page 11

Tourism is one of the most important sectors of the economy. Further improvement of this network is necessary, effectively taking advantage of the available capabilities. This is dictated by the era itself. In the world, there will be an almanication of many tourists between regions, which in some regions will make up large numbers. (Figure 2).




Figure 2. International tourist visit in the world continents in 2022 (%)⁴

Walking is considered very useful for human life, such a walk is better than just walking, as well as its easy training, which is often carried out in the bosom of nature and can enjoy it without any obstacles, communicate directly with local residents, is popular among tourists in terms of. In overcoming environmental problems on the planet by walking, in maintaining the biodiversity of nature⁵ it is considered one of the effective methods, through which it minuses the damage caused to nature. Walking can take anywhere from a few hours to a few days. It does not need excess items for training, so much so that it is enough for the desired food, water and quality shoes. This type of travel is mowed for various purposes. For example, wildlife viewing, to learn to observe, the altitude the study of plants can be to determine the culture, geography of the local population.

Useful aspects of walking

Walking improves physical fitness, which means that by walking, the human body is tempered through little movement, ensuring its flexibility to various conditions. Alternatively, the expansion of blood vessels in the human body, good blood circulation, strengthening of the imun system have been found by scientists to reduce

⁴ Prepared on the basis of data from the World Organization of Tourism(UNWTO).

⁵ Ecological tourism, R.Khaitbayev, Tashkent 2018

the risk of heart attack and stroke. And through cultural walks, the benefits that can be obtained through it will be greater. Physical activity, by walking in a row, leads to various mental disorders in a person, stress, decreased anxiety and high mood. By seeing beauty, the production of the substance dopamine in a person increases, which creates confidence that a person lives life. This leads to the fact that through this way this substance is produced naturally in man. Through this physical movement, it is also possible to prevent an increase in the ogress in the human body, through these walks, causing the excess fat in the traveler's body to Melt. As well as the beneficial aspects of each activity, there will certainly be negative aspects, the following are explained by the negative aspects of this activity: the physical strain of travelers who are not used to walking, who are not prepared enough, and through it harm their lives to varying degrees. By walking, there is a high calorie expenditure, and by eating foods that are high in calories than you should after this workout, stomach diseases can be observed, and in walkers for weight loss, there may be a constant change in weight.

The swing of hiking in this area in the world of Tourism and Uzbekistan

Various competitions and promotions are held in this direction in the world. For example in the longest distance walk, Korea beats in the first place. That is, it is held annually in Jeju Province, South Korea. The number of visitors grew from 3,027 in 2007 to 950,541 in 2017. It is also considered high in Europe. In Europe, this type of activity is also one of the most popular. The cool air of Europe, the infrastructure of the countries are also the reason for the development of this type of Tourism. By organizing this type of travel in Europe, revenue was estimated at \$ 586.3 milloin in 2018, with projected revenue of 1.6 billion in 2026. From these numbers it can be seen that this area of tourism is the one that brings a lot of income through low investment. A survey conducted in Germany found that those who performed the above forms of walking simply to be outside were 30%. The development of this species is considered scarce in Uzbekistan. This can also be caused by: low quality of Service, insufficient conditions for walking (flatness of roads, safety), the scarcity of modern landscape designs and their role in the development of this area are not properly evaluated, and the unpopularity of this type of tourism among the population.

Important factors for the development of hiking tourism

While hiking tourism can be developed in every jaoy, some factors are important for development, and the purpose of these factors is to bring amateur walkers to a professional level. At the stage of development of this area, the main elements are as follows:⁶:

- route features (attractiveness, safety, difficulty level);
- necessary equipment (signs, toilets, benches, etc.);

⁶ [The European market potential for walking tourism | CBI](http://www.cbi.eu) www.cbi.eu

- maintenance system;
- Economic opportunities (accommodation, transport, shopping centers, cultural programs, contacts), etc;
- Marketing and commercialization.

In the context of organizing walking, it will be advisable to teach travelers safety rules, conservation laws, the provision of first ambulance. The purpose of this is to ensure the safety of travelers, to be prepared for any unforeseen emergencies.

The most developed period of hiking tourism

Hiking tourism is growing in fast pictures among the world's population between the ages of 20-50, although the reason for this can be considered that people in this age range find out that walking is the most useful activity through scientific and life experiences. In the 2020 pandemic, many residents experienced respiratory problems. To solve these problems, of course, walking was considered the most effective way. From this year onwards, many tour-packages organised by tour operators were for walking, and the period following the pandemic was a thriving period of this tour.

Forms of hiking tourism

Hiking tourism includes: long-distance walking and short-distance walking, mountaineering, trekking, mountain walking, gorge walking. These tular walking distances are separated by height, difficulty levels. The form of long-distance walking consists of boib crossing a distance of at least 30 km in one day. Short-distance walking is 3-4 km. The mountain walking pattern consists of 3000 m high snow fields, rocks, scratching into the mountain. It consists of the most dangerous and risk-rich and, at the same time, strong pleasure

Table 1.

Forms of hiking tourism

Long distance walk -	it takes a day or at least 30 km on foot, by taking a few hours away from everyday life. Many routes involve long-distance walking from footpaths through a variety of low altitudes-long-distance walking has become a hobby for many tourists as it is done in a variety of landscapes.
Walking in the mountains	Mountain Hiking is usually done at elevations up to 3,000 meters above sea level. Mountain walking usually does not require any special equipment to ensure the safety of pedestrians. Cuttings are walked in conditions that are paved, flat, or not at risk of falling, by tying a rope on steep cuttings that are difficult to walk.

Trekking (a kind of long walking trip)	The duration of the trip in trekking is longer and usually starts from two days. On average, it lasts seven hours a day, several days in a row. The distance traveled can range from 50 km, rarely, even up to 24,000 km. Trekking is carried out on rough terrain, dirt roads, in a complete desert, at high altitudes, but can also be carried out along designated trekking routes with appropriate tourist infrastructure.
Walking on the gorge	Hiking in the gorges (in other words: exploring the gorges) is carried out in rocky places on mountain rivers, waterfalls, pools, rocky ground, natural pits. This activity is interspersed with swimming in the canyon, but swimming in the canyon is much more interesting than walking in the ravines. Walking in the gorges takes up to 3-4 hours.

In conclusion, hiking tourism brings significant benefits to both human health and nature. It is through the development of tourism that we reduce many environmental problems. In Uzbekistan, it is also ensured to develop this species in the current conditions, increase the connection between man and nature, increase the domestic economy, show tourists many places by walking. By solving a number of problems, we will also develop hiking tourism in Uzbekistan, in general, the tourism sector. For example, the repair of roads in world standards, the establishment of public toilets at certain distances, the reconfiguration of the existing ones; the improvement of the quality of kitchens providing our national dishes, which is also considered to be a big influence on the development of domestic and foreign tourism, since it is natural for visiting tourists to be interested in the National taons of.

REFERENCES

1. R.Khaitboyev, Environmental Tourism 2018.
2. M.A.Boltaboyev, I.S.Tukhliyev, B. SH.Safarov, S.A.Abdukhamidov. Tourism: theory and practice. 2018.
3. I.S.Tukhliyev, R.Hayitboyev, B. S. Safarov, G.R.Tursunova fundamentals of Tourism, 2014.
4. <https://www.trt.net.tr/uzbek/xalq-tabobati/2023/05/26/01234567890-1991173>.
5. <https://www.cbi.eu/market-information/tourism/walking-tourism/market-potential8>.
6. <https://www.trt.net.tr/uzbek/xalq-tabobati/2023/05/26/01234567890-1991173>
7. <https://www.cbi.eu/market-information/tourism/walking-tourism/market-potential>

**G’O’ZANING RIVOJLANISHIGA QATQALOQNING SALBIY TA’SIRI
(BUXORO VILOYATI SHAROITIDA)**

Abdualiyev Nuriddin Habibovich¹, Egamov Nodirbek Murodillayevich²

t.f.f.d., v.b. dotsent¹, katta o`qituvchisi²

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resrusrslarni boshqarish instituti^{1,2}

Annotatsiya. Jahonda qishloq xo’jalik ekinlari ekilgan maydonlarda qatqaloqni yumshatish uchun resurstejamkor texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo’naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. vazifalardan hisoblanmoqda. Maqolada qatqaloq hosil bo`lishiga moyil tuproq-iqlim sharoitlarida unib chiqayotgan g`o`za nihollarini kam shikastlagan holda to`liq unib chiqishini ta`minlash muhim masala ekanligi ta`kidlangan. Shu bilan birga g`o`za qator oralarida qatqaloqni yumshatish texnologik jarayonini amalga oshirishning ahamiyati keltirilgan.

Kalit so`zlar: qatqaloq, tuproq yuzasi, sug`orish, bug`lanish, tuproqning namligi, yumshatish, g`altakmola, g`o`za nihollari.

O`zbekiston Respublikasi qishloq xo`jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo`ljallangan strategiyasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta`minlash haqida muhim ustivorliklar belgilab berilgan. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish natijasida atrof-muhit va iqlim uchun yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni kamaytirishga qaratilgan qishloq xo`jaligi va qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi uchun tabiiy resurslarni samarali boshqarish asosiy ustuvor yo`nalish bo`lib hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun qishloq xo`jaligi ekinlarini parvarishlash, yog`ingarchiliklardan keyin paydo bo`lgan qatqaloqni yumshatadigan texnika vositalarini texnik va texnologik jihatdan yangi konstruksiyalarni yaratish muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

Ma`lumki, ekin maydonlaridagi qatqaloq – kuchli yog`ingarchiliklar va sug`orishdan so`ng tuproq yuzasida hosil bo`ladigan qattiq qatlarni hisoblanadi. Sug`oriladigan dehqonchilik yerlaridagi deyarli barcha tuproqlari qatqaloqlanishga moyil. Bunga asosiy sabab – tuproqlarning haddan tashqari kam donadorligi va tuproq agregatlarining suvga juda ham chidamsizlidir. Yomg`irdan yoki ho`llatib sug`orishdan so`ng yerning ustki qatlami ivib suyuladi, quriganda qotib qatqaloq hosil qiladi va yuzasida yoriqlar paydo bo`ladi. Qatqaloq tuproq xossalari va qishloq xo`jalik ekinlari rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi, chunki tuproqning suv o`tkazuvchanligi va havo almashinuvini sekinlashtiradi, shuningdek, tuproqdagi namning (20-30 foizgacha) bug`lanishini tezlashtiradi. Juda qalin qatqaloq hosil

bo`lgan dalalarda maysalarning unib chiqishi 3-5 kunga kechikadi va ko`chat soni siyraklashib ketadi. Qatqaloq hosil bo`lish jarayoni tuproqlarning mexanik tarkibi, turi, madaniy holati, sho`rlanganligi va boshqalarga bog`liq. Qatqaloq, ko`pincha, sug`oriladigan bo`z va cho`l tuproqlarida hosil bo`ladi. Uning qalinligi va qattiqligi tuproqning mexanik tarkibiga bog`liq. Ayniqsa, og`ir qumoqli, soz mexanik tarkibli taqir, sur tusli qo`ng`ir tuproqlarda va taqirlarda qatqaloq qalin hamda juda qattiq bo`ladi. Sho`rlanish hamda sho`rtoblanish qatqaloq hosil bo`lishiga moyillikni kuchaytiradi. Masalan, yengil qumoqli och tusli bo`z tuproqlarda qatqaloqning qalinligi 0,3-0,5 sm, och hamda to`q tusli bo`z tuproqlarda 0,8-1,5 sm, kuchsiz sho`rlangan qumoqli va soz mexanik tarkibli taqir tuproqlarda 2,4-4,5 sm ni tashkil etadi; bir m^2 yerdagi qatqaloqning og`irligi 50-70 kg gacha yetadi [2].

Buxoro viloyati sharoitida chigit ekilgandan keyin odatda tez-tez yog`ingarchilik kuzatiladi. Natijada tuproq balchiqqa aylanib, qurish jarayonida mustahkam qatqaloqqa aylanib, g`o`za nihollarining vaqtida unib chiqishiga imkon bermaydi. Qatqaloq nafaqat urug`larning unib chiqishiga to`sinqlik qiladi, balki o`simliklarning o`sish sharoitini yomonlashtiradi. Xususan, qatqaloqning paydo bo`lishi haydalgan qatlaman dan namlikning ko`tarilishini tezlashtiradi. Qatqaloq o`simliklarning ildizlariga havoning yetib borishini qiyinlashtiradi, natijada biokimyoviy jarayonlar va ayerob mikroblarning faoliyati to`xtaydi. Oqibatda tuproqda oziq moddalarning hosil bo`lishi va ularning o`simliklarning oziqlanishi uchun ma`qul holatga o`tishining imkonи bo`lmaydi. Tuproqda gaz almashinushi yomonlashib, o`simliklarning ildiz tizimi va bakteriyalardan ajraluvchi zararli moddalar to`planib qoladi. Natijada nihollar nobud bo`ladi. Qatqaloqning paydo bo`lishi natijasida nihollar siyraklashadi va rivojlanishdan ortda qoladi. Shu tarzda begona o`tlarning o`sishi uchun qulay sharoit yaratiladi, ularning urug`lari tezroq yetiladi va ko`p miqdorda tuproqqa to`kiladi. Keyinchalik begona o`tlarning urug`lari suv orqali tuproq yoriqlari orasiga kirib qoladi va haydov qatlamiga o`rnashib oladi. Natijada xo`jaliklarda qatqaloq bilan kurashish uchun katta mehnat va mablag`lar sarflanadi, chunki uni yumshatish bir-ikki kun ichida yakunlanmasa, u qattiqlashadi va yorilib ketadi [3].

Qatqaloq nafaqat urug`larning unib chiqishiga to`sinqlik qiladi, balki o`simliklarning o`sish sharoitini yomonlashtiradi. Xususan, qatqaloqning paydo bo`lishi haydalgan qatlaman dan namlikning ko`tarilishini tezlashtiradi. Qatqaloq o`simliklarning ildizlariga havoning yetib borishini qiyinlashtiradi, natijada biokimyoviy jarayonlar va aerob mikroblarning faoliyati to`xtaydi. Oqibatda tuproqda oziq moddalarning hosil bo`lishi va ularning o`simliklarning oziqlanishi uchun ma`qul holatga o`tishining imkonи bo`lmaydi. Tuproqda gaz almashinushi yomonlashib, o`simliklarning ildiz tizimi va bakteriyalardan ajraluvchi zararli

moddalar to`planib qoladi. Natijada nihollar nobud bo`ladi. Qatqaloqning paydo bo`lishi natijasida nihollar siyraklashadi va rivojlanishdan ortda qoladi. Shu tarzda begona o`tlarning o`sishi uchun qulay sharoit yaratiladi, ularning urug`lari tezroq yetiladi va ko`p miqdorda tuproqqa to`kiladi. Keyinchalik begona o`tlarning urug`lari suv orqali tuproq yoriqlari orasiga kirib qoladi va haydov qatlamiga o`rnashib oladi. Natijada xo`jaliklarda qatqaloq bilan kurashish uchun katta mehnat va mablag`lar sarflanadi, chunki uni yumshatish bir-ikki kun ichida yakunlanmasa, u qattiqlashadi va yorilib ketadi [4].

Yuqorida ta`kidlanganlardan kelib chiqib, qatqaloqning paydo bo`lish xususiyatlarini ko`rib chiqamiz. Qatqaloqning paydo bo`lishi bo`yicha o`tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida unga quyidagicha ta`rif berilgan. Qatqaloq deb yomg`ir va sug`orishlardan keyin suvning tuproq tarkibiy qismlariga yuvuvchi ta`siri natijasida hosil bo`lgan qattiq qobig`iga aytildi. Shundan kelib chiqqan holda, g`o`za qator oralarida hosil bo`lgan qatlamni sifatli yumshatishda asosiy e`tibor qaratish talab etiladi. Qatqaloq qurigandan so`ng qattiqlashadi, zichlashadi va betartib yo`nalishlar bo`yicha yoriladi. Bugungi kunda qishloq xo`jaligi amaliyotida ekin maydonlarida qatqaloq bilan kurashishning keng tarqalgan vositasi borona yoki qirrali g`altakmola, chopiq qilinadigan maydonda esa g`ovaksimon motiga hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda g`o`za qator oralarida hosil bo`lgan qatqaloqni yumshatishda ilmiy asoslanmagan qo`lbola texnika va texnologiyalarni qo`llash ham uchrab turadi. Bu o`z navbatida g`o`za nihollaring shikastlanishiga va qatqaloqni sifatli yumshatilmasligiga sabab bo`lmoqda [5]. O`z vaqtida bir qator mutaxassislar tomonidan qatqaloq paydo bo`lishining oldini olish choralar sifatida turli mulchalovchi materiallar (go`ng, torf, qum, maydalangan o`simlik qoldiqlari, gumbrin, niholni himoyalovchi qog`oz va sh.k.) yordamida tuproq yuzasini himoya qatlami bilan qoplash, ekin poyasini qoldirish va shu kabi usullar taklif etilgan [6]. Ammo bular bir qator ustunliklarga ega bo`lishiga qaramasdan, mulchalovchi materialning katta miqdorda talab qilinishi sababli joriy etilmagan. Shu sababli odatda qatqaloqni mexanik usulda yumshatish amaliyotda keng qo`llanib kelinmoqda.

G`o`za qator oralarida qatqaloqni yumshatishning quyidagi afzalliklari mavjud:

- G`o`za o`sib rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi;
- Tuproqdan namning qochishi kamayadi;
- Tuproqning havo almashuvchanligi yaxshilanadi;
- Ozuqaviy moddalar yaxshiroq o`zlashtiriladi va g`o`zaning kasallanish ehtimoli kamayadi.

Shuning uchun g`o`za qator oralarida hosil bo`lgan qatqaloqni o`z vaqtida yumshatish paxta yetishtirish agrotexnikasini sifatli bajarilishida asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo`jaligida mexanizatsiyalashagan ishlarni

tashkil etish, qo`l mehnatini kamaytirish fermer xo`jaligi uchun ham ijtimoiy, ham iqtisodiy samara beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, g`o`za qator oralaridagi qatqaloqni yumshatishda ilmiy asoslangan texnika va texnologiyalarni qo`llash tavsiya etiladi. G`o`za qator oralariga ishlov berishning asosiy vazifalaridan biri – qatqaloqni yumshatish hisoblanadi. Qatqaloqni yumshatish natijasida g`o`zaning o`sib rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi, tuproqdan namning qochishi kamayadi, uning havo almashinushi yaxshilanadi, ozuqaviy moddalar yaxshiroq o`zlashtiriladi va g`o`zaning kasallanish ehtimoli kamayadi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro`yxati

1. <https://www.lex.uz/docs/-4567334>
2. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi 10-jild. – T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 655 b.
3. Abdualiyev N.H., Egamov N.M. Qatqaloqning paydo bo`lish xususiyatlari. G`o`zaning rivojlanishiga qatqaloqning salbiy ta`siri // Suv va yer resurslari, Agrar-gidromeliorativ ilmiy-ommabop jurnal - 3(14)-son 2022-yil, 52-59-betlar
4. Каспиров А.И. Почвенная корка и борьба с ней. – Л.: 1951. – 91 с.
5. Абдуалиев Н.Х., Эгамов Н.М. Қатқалоқни юмшатиш учун қўлланиладиган технологиялар ва техника воситаларининг таҳлили// Agroilm – O`zbekiston qishloq va suv xo`jaligi- №6. 2022, 86-88-бетлар.
6. Гумбатов О.М. Новый способ получения дружных всходов хлопчатника в условиях тяжелых почв Ширвани. Автореф. дисс. ... конфеты. с.-х. наука - Кировабад, 1971. - 23 с.
7. Abdualiev N. K., Egamov N. M. Harness softening roller for cotton cultivators //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – Т. 1076. – №. 1. – С. 012028.
8. Эгамов Н. М. и др. Fўза уруғларнинг униб чиқиши ва ривожланишига қатқалоқнинг таъсири //International scientific research conference. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 81-87.
9. Эгамов Н. М. Fўза қатор ораларида қатқалоқнинг ҳосил бўлиши ва унинг салбий оқибатлари //modern scientific challenges and trends. – 2022. – С. 11.

DON DELILLONING “WHITE NOISE” ROMANI HAQIDA

Qurbanova Shaxlo O'ktamovna

Turkiston Yangi Innovatsiyalar Universiteti I-bosqich magistranti

Annotasiya Ushbu yilda 87 yoshni qarshi olgan Don Delillonning “White Noise” romani 21 asrning eng ommabob romanlardan biri desak xato qilmagan bo’lamiz. Delillonning ilk “Americana” asari 1971 yilda chop etildi, lekin 1985 yilda uning “White Noise” asari chop etilgunga qadar boshqa asarlari omma oldida mashhurlikka erishmadi. Bu asari orqali Don Delillo katta muvaffaqiyat va olqishlarga sazovor bo’ldi va 1985 yilda roman milliy mukofotga erishgan. Ushbu maqolada romanda muallif jamiyatning bir bo’lagi bo’lmish bir oilaning oilaviy munosabatlari, oila a’zolarining bir-biriga bo’lgan munosabatlari, turli xil ziddiyatlar, Amerikaning shiddatli hayot tarzi, kundalik kechinmalar, bosh qahramonlarning kundalik hayot tarzi va orzu-istiklari aks ettirilgan. Muallif bu asariga oz’gacha yondashganligi boiz muvaffaqiyatga erishgan. Yillar o’tsada bu roman o’z dolzarbligini yo’qotmagan va hozirgi kunda ham adabiyotning yuksak cho’qqisidagi romanlarning biri desak bo’ladi. Chunki muallif hozirgi kunda ham dolzarb bolib kelayotgan ommaviy axborot vositalarining inson hayotidagi o’rni, bu vositalardan hamma ham to’g’ri ma’noda foydalana olmasligi, uning yoshlar hayotidagi ta’siri, insoniyat ongini zaharlab, boshqa kerakli ishlarga, ta’lim olishga yetarli vaqt ajrata olmaslik, insoniyatning bilimsizlikka, tubsiz daryoga cho’kib borayotgani va insoniyat mana shu mashinalarga tobe bo’lib qolayotgani haqida so’z yuritadi.

Kalit so’zlar: *Don Dellillo, roman, obraz, adabiyot, jamiyat, qahramon, insoniyat, munosabat*

Kirish. Hammaga ma'lumki har qanday badiiy asar muallifning ichki kechinmalari, uning bolalikdagi hissiyotlari, hayot davomida ko’rgan qiyinchiliklari va orttirilgan hayotiy tajribasi orqali bir asarga qo’l uradi va shu orttirilgan tajribalar ortidan shedevr, noyob asarlar omma yuzini ko’radi. Inson o’z hayotiy tajribasi va kechinmalari orqali insoniyatni jumbushga keltiruvchi kundalik kechinmalar, boy va kambag’allarning hayot tarzi, ularning qiziqishlari va ertangi hayotga bo’lgan qarashlarini asarda gavdalantira oladi. Shunday asarlardan biri amerikalik yozuvchi Don Delillonning “White Noise” asaridir. Ushbu asar yozuvchini ommaga mashhur qilgan va shov-shuvlarga sabab bo’lgan asar desak mubolag’a qilmagan bo’lamiz Yana bir muhim jihat shundaki hozirda insoniyat zararli mahsulotlar qanchalik zarar bo’lmasin buni bila turib, tez tayyor bo’ladigan yarim tayyor mahsulotlardan tez-tez foydalanishi, supermarket rastalaridagi mahsulaotlar inson umriga zomin bo’layotgani

va reklama hayotimizda qanchalik katta rol o’ynashini va qimmatbaho sog’ligimiz orqasidan qanchalik pul ishlayotgani haqida takror-takror so’z yuritadi. Kimdir semizlikdan aziyat cheksa yana kimdir taqiqlangan dorilarga o’tirib qolishdan va bu dorilar ularni tinchlantirib, qo’rquvni yengishga yordam beradi deb o’ylaydi asar qahramonlari. Yillar o’tsada bu mavzular bugungi kunda ham eng dolzarb mavzulardan biri bo’lib qolyapti. Insoniyat o’zini tubsiz jarlikka olib boryapti. Bunga asosiy sabab nima? Ilmsizlikmi yoki vaqtimizni behudaga sarflashmi? Bunga o’xshash savollar bisyor, lekin javob toppish qiyin. Balki bularning asosiy sababi jadal rivojlanib borayotgan texnologiyalardir. Balki shu texnologiyalar bo’lmaganida inson vaqtini ilmga bag’ishlagan bo’lib, olim ulamolar ko’paygan bo’larmidi yoki shu texnika asrini shu olim ulamolar yaratgandir. Nima bo’lganda ham texnika asri jadal rivojlanishga olib keldi, lekin haqqoniylik, soflik yo’qoldi. Ise;mol qilayotgan barcha narsalarimiz tabiiy, va sof emas. Mana shu mavzularning barchasi bugungi kunda ham xuddi Delillo bir necha yillar avval yozganidek eng dolzarb mavzu va muammolar hisoblanadi. Balki shuning uchun bu kitob katta muvaffaqiyatga erishib, bugungi kunda ham kitobxonlar orasida eng sevimli kitoblardan hisoblanadi. Delillo nafaqat Amerikada balki dunyoda dolzarb bo’layotgan mavzuni yoritib berdi. Shuning uchun bu roman nafaqat Amerika balki butun dunyoda sevib mutolaa qilinadi.

Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar. “White Noise” asari Don Dellilloga eng katta zafar keltirgan asarlardan biri bo’lib, bu asar uning sakkizinchisini hisoblanadi. Don Delilloning bu kitobi uni mashur qildi va “Time” jurnali bo’yicha bu kitob 1923 yildan 2005 yilgacha ingliz romanlari ichida eng zo’r top 100 talikka kiradi. Delillo bu kitobga “Panasonic” deb nom bermoqchi bo’lgan biroq kompaniya bunga rozilik bermaganidan so’ng muallif bu kitobni “White Noise” deb nomlagan. Bunday nomlanishiga sabab elektromagnit to’lqinlaridan yorug’lik kelishidir. Bunday shovqin ko’pincha sozlanmagan radio yoki televizordan keladi deb izohlaydi muallif. “White Noise ya’ni oq shovqin insonni tinchlanishiga va sokin uyqusiga yordam beradi. “White Noise metafora sifatida qo’llanilgan bo’lib, ma’nosini qahramonlarning fobiyasi bo’lmish o’limdan qo’rqishi, o’limi yaqinligi va bu fobiyani yengish bilan kechadi. Bu asarda muallif Amerikada ommaviy axborot vositalari bo’lmish kino, reklama, ekran, monitoring inson hayotidagi o’rni, olinayotgan axborotning qanchalik haqqoniyligi va inson hayotida tutgan o’rni haqida yoritadi va shu bilan bir qatorda Amerika supermarketlari, magazinlar, supermarket rastalaridagi mahsulotlar va ularning inson hayotidagi ta’siri va o’rni va supermarketlardagi mahsulotlarning rivojlanishi uchun reklamaning o’rni kabi dolzarb mavzular yoritilgan.”This place recharges us spirituall, It’s a gateway or apathway. Look how bright. It’s full of psychic data... Everything is concealed in symbolism, hidden veils of mystery and layers of cultural material. But it is psychic data absolutely. The large doors slide open, they close unbidden...Look how well-lighted everything is. The place

is sealed off, self-contained. It is timeless”¹ (Delillo 2009: 22) K.A.Filinova Delillo ijodini “virtual olamda yo’qolib qolgan va qolib ketgan odamlar deya ta’rif beradi. (Filinnova 2016;57)

Natijalar va tahlil. Delillo televizor film, ko’rsatuvlar yoki boshqa narsa uchun emas balki reklama uchun ko’rsatilishi va bu reklamalar supermarket rastalaridagi narsalarni sotish uchungina katta ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatmoqchi bo’ladi, ammo asar qahramoni Jek Gledni buni farqiga bormaydi. Amerikaliklar uchun televide niye muhim malumotlar to’planadigan joy hisoblanadi va bu narsa Amerika xalqini kerakli va keraksiz malumotlarni tarqatuvchi ensiklopediyaga aylantirib qo’yadi..”White Noise” asari bu insonlar hayoti emas balki supermarket rastalaridagi brend markalar hayoti desa ham bo’ladi. Muallif asardagi yosh qahramonlar ommaviy axborot vositalari va barcha brend markalarni kattalardan yaxshi bilishini, chunki bu ma’lumotlar ularga ona suti bilan singganligini qayd etadi. Bunday keraksiz ma’lumotlarning ko’pligi insoniyatni bilimsizlikka olib keladi, kitob o’qish, kerakli bilimlarni olish ikkinchi darajaga tushib qoladi. Kompyuter paydo bo’lganidan so’ng televizor ham ikkinchi darajaga tushib qoladi. Chunki kompyuterdan televizordan ko’ra ko’proq ma’lumot olish va insonlar bir-biri bilan muloqot qilish imkonи tug’ildi. Muallif qahramonlarni televizor ma’lumotlari va fast foodlarga tobe bo’ilib qolganini ko’rsatadi. Oilada har juma kuni bir davra atrofida yig’ilib televizor ko’rish va sevimli mahsulotlarini istemol qilishlarini yoritib beradi. Ular shu televizordan olingan ma’lumot va tayyor taomga shunchalik berilib ketishadiki xuddi boshqa dunyoga kirib qolgandek bo’lishadi. Asarni insoniyat hayoti yoki uning taqdiri deyish mumkin. Chunki insoniy tuyg’ular barcha narsadan ustun. “White Noise” da jamiyatning bir bo’lagi bo’lmish radio, televide niye haqida yoritilgan bo’lib asarda asosiy qahramonlar Jek Gledni-bosh qahramon, Bebetta-Jek Gledninig turmush o’rtog’I, ularning umumiy oltita farzandlari bor va hozirda ular to’rt farzandlari bilan yashashadi. Bebetta turmush o’rtog’iga Uilli Minsk bilan xiyonat qiladi. Genrix Gerxard-Jek Gledni va Janet Sevarining 14 yoshli farzandi. Dana Bridlav Jek Glednining birinchi va to’rtinchi turmush o’rtog’I va Meri Elis va Steffining onasi.Bi-Jek Gledni va Tvidi Brauner ning 12 yoshli qizi. Tvidi Brauner-Jek Glednininguchinch xotini va Bining onasi. Steffi-Jek Gledni va Dana Bridlavning 12 yoshli qizi. Uaylder-Bebettaning 2 yoshli farzandi va oiladagi eng yosh bola. Meri Elis-Jek va Dana Bridlav bilan birinchi turmushidan 12 yoshli qizi. Myurey Jey Siskind-Jekning hamkasbi. Orest Merkator-Jeknig o’rtog’i. Vernon Diki-Bebettaning otasi. Villi Minsk-olim. Vinni Richards- kollejdagi olim. Janet Sevari-Jekning ikkinchi turmush o’rtog’I va Genrixning onasi. Jek Gledni Amerika kollejida Gitlerni o’rganuvchi birinchi o’qituvchi, kafedra mudiri bo’lib ishlaydi va kollejda obro’-e’tiborga ega va qolgan jabhalarda oddiy amerikalik o’rtahol kishidir. Jek Gledni nemis tilini bilmasada Gitlershunos bo’lganidan faxrlanadi va o’z ishini puxta va aniq bajaradi. Jek Gledni salkam 50 yoshni qarshi olgan, bir necha marta

4. Степанов А.В. Общественная безопасность: теоретико-правовой анализ // Вестник АНО ВПО “Прикамский социальный 30 институт” – №1(69) – 2015. С. (29-37) (Stepanov A.V. Public safety: theoretical and legal analysis // Bulletin of the ANO VPO “Prikamsk Social Institute” - No. 1 (69) - 2015. P. (29-37).).
5. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг маълумотномаси (Reference of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan).
6. <https://lex.uz/acts/-3027843>

**ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TALONCHILIK JINOYATLARIIGA
QARSHI KURASHISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

ELMUROD JO’RAEV ERKINOVICH

*O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
magistratura tinglovchisi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi*

*Huquqshunoslik
+998883240777*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o’zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish yo’li bilan sodir etilayotgan talonchilik jinoyatini tergov qilish metodikasi va taktikasining ayrim eng muhim jihatlariga etibor berish orqali ushbu turdagji jinoyatlarni oldini olish hamda sonini kamaytirish imkonini beruvchi masalalar haqida so’z yuritiladi. Shuningdek, talonchilik jinoyatini sodir etgan shaxsni aniqlashda tanib olish uchun ko’rsatish tergov harakatining o’ziga xos xususiyatlari bilib olish mumkin.

Kalit so’zlar: *Talonchilik, metodika, taktika, tanib olish uchun ko’rsatish, tergovchi, guman qilinuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, taqdimnoma.*

**ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВА СЛЕДСТВЕННОГО ДЕЙСТВИЯ
ПО ПРЕДЪЯВЛЕНИЮ ОПОЗНАНИЯ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ
ПРЕСТУПЛЕНИЯ О РАЗБОЕ.**

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о вопросах, позволяющих предупредить и сократить количество данного вида преступлений, уделив внимание некоторым наиболее важным аспектам методики и тактики расследования преступления грабежа, совершающего путем открытого хищения чужого имущества. Также можно выяснить особенности проведения следственного действия по установлению личности лица, совершившего преступление грабёжа.

Ключевые слова: *Разбой, методология, тактика, опознание. детектив, подозреваемый, потерпевший, свидетель, представление.*

**SPECIFIC FEATURES OF CONDUCTING AN INVESTIGATIVE ACT OF
SHOWING FOR RECOGNITION IN THE INVESTIGATION OF A
ROBBERY CRIME.**

ABSTRACT

This article talks about issues that allow to prevent and reduce the number of this type of crimes by paying attention to some of the most important aspects of the investigation methodology and tactics of the crime of robbery committed by openly robbing someone else's property is maintained. It is also possible to find out the specific features of the investigative act of showing to identify the person who committed the crime of robbery.

Key words: *Robbery, methodology, tactics, identification, detective, suspect, victim, witness, presentation.*

KIRISH

Talonchilik huquqiga ko‘ra o‘zganining mulkini talon-taroj qilishdir. Talonchilik oshkora yoki yashirin ravishda sodir etilishi mumkin. Agar aybdor jabrlanuvchilar yoki boshqa shaxslar ko‘z o‘ngida talonchilik qilayotganligini va ular aybdorning harakatlari xususiyatini tushunayotganligini bila turib, talomchilikni amalga oshirsa, u oshkora deb hisoblanadi. Agar talon-toroj qilinganligini odamlar sezmasalar yoxud buyum olinganligi faktini ko‘ra turib, uni qonuniy hisoblasalar va aybdor ham shunga umid qilgan bo‘lsa, u holda talochilikni oshkora deb tan olinishi mumkin emas. Yashirin ravishda boshlangan talon-toroj ba’zan o‘zgalar mulkini ochikdan-ochiq egallahsga aylanib ketadi.

Bunday hollar, mulkni egallah jarayonida jinoyatchini sezib qolishganida, lekin jinoyatchi buni tan olmay o‘z harakatlarini davom ettirib, mulkni oshkora egallab olganda sodir bo‘ladi. Talonchilik mulkdorga mulkiy zarar yetkazishdek ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqaradi. Mulkni amalda egallab olish, ya’ni jinoyatchida talon-toroj qilingan narsadan foydalanish imkoniyati paydo bo‘lishi vaqtidan boshlab bu jinoyat tugallangan hisoblanadi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Talonchilik uchun O‘zbekiston Respublikasi JKning 166-moddasida javobgarlik masalasi berilgan bo‘lib, unda talonchilikning kvalifikatsiya tarkibi sog‘liq va hayot uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlik ishlatish, yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rkitish kabi o‘ziga xos belgini o‘z ichiga oladi.

Xuddi jismoniy zo‘rlik kabi, jismoniy zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rkitish orqali ruhiy zo‘rlik ham talonchilikning kvalifikatsiya belgisi hisoblanadi. Talonchilikda zo‘rlik mulkdorga, shuningdek, real holda yoki aybdorning fikricha, talon-torojga to‘sinqil qiluvchi boshqa shaxslarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Insonga nisbatan zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rkitish talonchilik turining mohiyatini o‘zgartiradi. Bunday hollarda jinoyat ikki ob’yektni bo‘lib qoladi: mulk munosabatlari bilan birga sog‘liq, shaxsiy erkinlikni va badan daxlsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetadi yoki ularga bevosita xavf tug‘iladi.

O'z o'rniда shuni aytish joizki, talonchilik jinoyati sodir etilganda ko'ramizki ko'p hollarda bu jinoyatni sodir etgan shaxs hodisa sodir bo'lган joyning o'zida qo'lga tushmaslik holatlari kuzatiladi hamda ijtimoiy xavfli qilmish natijasida zarar yetgan shaxs ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsnинг tashqi qiyofasini oz bo'lsada esda saqlab qolishga harakat qiladi bu esa ushbu ijtimoiy xavfli qilmish yuzasidan tergovga qadar tekshiruv bosqichida o'tkazsa boladigan ayrim tergov harakatlari va protsessual harakatlari masalan, hodisa sodir bo'lган joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash, tushuntirish xatilari hamda hodisa sodir bo'lган joyda video tasvirga olish vositalari bo'lган bo'lsa ularni xat orqali ochib ko'rildi va shu kabi harakat amalga oshirib bo'lgandan so'ng tergovchi tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Shu bilan dastlabki tergov harakatlaridan jinoyat ishini ochishga yordam beradigan tergov harakatlari o'tkaziladi.[2]

Misol uchun, so'roq qilish, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, narsani ko'zdan kechirish hamda shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish kabi tergov harakatlari o'tkaziladi. Shundan so'ng esa kelgusi tergov harakatlari zarur hollarda o'tkazilishi mumkin bo'ladi. Ushbu jinoyatni ochishda ya'ni jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlashda tanib olish uchun ko'rsatish muhim axamiyat kasb etadi. Chunki ushbu tergov harakati orqali jinyat sodir etgan shaxsni topishda yordam beradiga tergov harakati hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tanib olish uchun ko‘rsatish – tergov protsessual harakat bo‘lib, jinoyat jabrlanuvchisi, guvohi, guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining biror shaxs yoki narsa to‘g‘risidagi ko‘rsatuvini tekshirib ko‘rish uchun amalga oshiriladi. Shaxs tanib olish uchun tergov olib borilayotgan ishga aloqasi bo‘lmagan, tashqi belgilari bilan o‘ziga o‘xshaydigan shaxslar guruhi orasida xolislar huzurida ko‘rsatiladi. Tanib olish uchun ko‘rsatilayotgan shaxslarning umumiy soni uch nafardan kam bo‘lmasligi kerak. Tanib olinuvchiga tanib olish uchun ko‘rsatiladigan shaxslar guruhi orasida istagan joyni egallash taklif qilinadi. Tanib olinuvchi kiyimi, soch qirqtirishi yoki tarashi yoxud boshqa belgilari bilan tanib olish uchun ko‘rsatiladigan o‘zga shaxslar orasida yaqqol ajralib turmasligi lozim. Shaxsni tanib olish uchun ko‘rsatishning iloji bo‘lмаганда yoxud xavfsizlikni ta’minlash maqsadida uning fotosuratidan foydalanish mumkin.[3]

Tanib olish uchun jadval qog‘ozga yaxshilab yopishtirilib, muhrlangan va raqamlangan, lekin suratga olingan shaxslarning ismi va familiyalari ko‘rsatilmagan kamida uchta fotosurat ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, talonchilik jinoyatini tergov qilish jarayonida tanib olish uchun ko‘rsatish obekti sifatida talon-taroj qilingan narsa, buyum, ashyo bo’lishi mumkin hamda jinoyat sodir etgan shaxsning o’zi ham bo’ladi albatta. Yana shu takidlash joizki talon-taroj qilingan narsa jabrlanuvchi yoki fuqaroviylar

da'vogar uchun yaxshi taish bi'lganligi bu ushbu jinoyatda tanib olish uchun ko'rsatishning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Talonchilik jinoyatini oldini olish maqsadida tergovchining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

birinchidan, talonchilik jinoyatini sodir etishgaolib kelgan motivlar qanday paydo bo'lganligi;

ikkinchidan, ushbu jinoyatni sodir etishga yartilgan shart-sharoitlar holatlarni aniqlashdan iboratdir. Talonchilik jinoyatining sodir etilishiga sabab bo'lghanholatlar ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga kiruvchi tipik holatlarga quyidgilarni kirlitsa bo'ladi: yosh o'spirinlarning nazoratsiz qoldirilishi , ayrim noxo'sh oilalarda ularga nisbatan salbiy ta'sir ko'rsatilishi (oilada surunkasiga spirtli ichimliklarning iste'mol qilinishi, oilada egoism, qo'pollik, atrof-muhitganisbayan mensimaslik, balandimog'lik bilan qarashlik) kabi holatlar. Bu holatlarga maktablarda, o'quv muassasalarida hamda ishlab chiqarish jamoalarida tarbiyaviy ishlarning sustligi, yhash joyidagi jamoat tashkilotlarining faoliyatsizligini qo'shish mumkin. Biron-bir ma'naviy negizga ega bo'lмаган, o'зининг bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishni bilmaydiga yosh qatlam ichkilikbozlikka, kartao'yinlariga berilib ketadi, natijada ular avvalo kichikroq, kam ahamiyatli bo'lган huquqbuzarliklarni sodir etadilar, keyinroq ularning ongida jazosiz qolib ketishlik alomatlarining paydo bo'lishi natijasida og'iroq ya'ni talonchilik jinoyatining sodir etilishiga olib keladi.

Ikkinchi guruh holatlariga quyidagilar kiradi: birinchidan, ma'muriy organlar faoliyatiga yo'l qo'yiladigan kamchiliklar : tekino'r larcha turmush kechirayotgan shaxslar jinoyatchilar muhitiga tushib (shaxslar) qolishi, jinoiy guruhlar bilan ishslashning sust olib borilishi; talonchilik jinoyatlarining to'la ochilmay qolishliklari;

o'q-otish va sovuq qurollarni tortib olishdagibeparvoliklar; jamoat tartibini qo'riqlash organlarining faoliyatsizligi; turar jiy atroflarining yaxshi yoritilmaganligi;

ikkinchidan, jabrlanuvchilarning ma'naviy va axloqiy xulqining buzuqligi;

uchinchidan, moddiy qimmatliklar bilan muomala qilish qoidalarining buzulishi. Masalan, g'aznachi yoki inkassatorlarning pul vositalarini qo'riqchisiz transportda olib yurishi.[4]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talonchilk jinoyatini sodir etgan shaxs aniqlangandan so'ng ushbu turdag'i jinoyatlarni sodir etilishini oldini olish maqsadida keltirib chiqargan sabablar, holatlar aniqlangandan so'ng tergovchi korxona, muassasa va tashkilotlarga ularning oldini olish to'g'risida taqdimnomaga kiritilad. Taqdimnomada jinoyatning sodir etilihiga imkon yaratib ko'rsatilishi bilan birga ushbu holat vas hart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ham ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Respublikasi Jinoyat kodeksi. T.; 2021y.
2. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. T.; 2021y.
3. O’zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining Qarori. T.; 1999 yil 30 aprel, 6- son.
4. <https://uz.m.wikipedia.org>

SAVOD O'RGATISH JARAYONINING TARIXIY-QIYOSIY TAHLILI MASALASI

N.Abdulyalieva— FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)

M.Yodgorova— FarDU 3- bosqich talabasi

S.Karimova— Farg‘ona tumani 14- maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada savod o’rgatish jarayoni, uni tashkil etishda qo‘llaniluvchi vositalar, o‘qish va yozish jarayonining psixofiziologik tavsifi hamda bugungi kun savod o’rgatishga qo‘yiladigan talablar tasnifi keltirilgan. Eski maktab tuzumi davridagi savod chiqarish usullariga keng ta’rif berilgan.

Kalit so‘zlar: Tovush tizimi, tutuq belgisi, psixofiziologik tavsifi, yozuv, savod o’rgatish metodlarining qiyoziy-tanqidiy tahlili, analitik-sintetik tovush metodi.

Savod o’rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari O‘qish va yozish - nutq faoliyatining turi. Maktabda o‘qitish elementar o‘qish va yozishga o’rgatishdan boshlanadi. “Alifbe”ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o‘quvchilar o‘qish va yozishga o’rgatiladi, ya’ni o‘qish va yozish ko’nikmasini egallaydilar.

Savod o’rgatish davrida o‘qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o‘qish va yozish ko’nikmasi deyiladi. Bu ko’nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko’nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko’nikmaga aylanmagan bo’lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o‘quvchi harflarni tanib, ularni o‘qiy olmasligi mumkin. Yozish ko’nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya’ni yozish jarayonida partada to’g’ri o’tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo‘yish kabilalar ham o’rgatiladi.

O‘qish va yozish ko’nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o‘quvchi ruchkani qanday ushslash, qanday yurgizish haqida o‘ylab o’tirmay, so‘z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o‘qish va yozish malakasi harakatning o‘ylab o’tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o‘qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O‘qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta’minlaydi. Shuning uchun ham o‘qishga o’rgatish bilan yozuvga o’rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. SHunday ekan, savod o’rgatish jarayonida bola juda ko‘p o‘qishi va yozishi zarur.

O’zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya’ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O’qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi.

O’zbek tilining tovush tizimi va yozuvi. O’zbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993 yildan boshlab o’zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi.

O’qituvchi savod o’rgatish jarayonida o’quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o’qishga o’rgatishda o’zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o’rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So’z bo’g’inga bo’linadi, bo’g’indan kerakli - o’rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o’rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o’qish jarayoni o’zlashtiriladi. Bunda o’zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi. Savod o’rgatishda o’zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

O’qish va yozish jarayonining psixofiziologik tavsifi. O’qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi o’quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi.

Kichik yoshdagi o’quvchini **o’qishga** o’rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o’qish paytida bitta harfni ko’radi, uni bilish uchun rasmlarni ko’z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushrigach, uni aytishga oshiqadi, biroq o’qituvchi aytishga yo’l qo’ymaydi, undan bo’g’inni aytishni talab qiladi. O’quvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo’shib bo’g’in, bo’g’indan so’z hosil qilguncha, o’qish jarayoni sustlashadi.

2. Ko’pincha bola o’qiyotgan qatorni yo’qotib qo’yadi, harfni, bo’g’inni, so’zni qayta o’qishiga to’g’ri keladi. O’quvchining diqqati kengaygan sari bo’g’in va so’zni butunligicha idrok eta boshlaydi.

O’qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o’quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o’stirishga katta e’tibor berish kerak.

Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. SHu bois savod o’rgatish davrida eshitish idrokini o’stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar o’tkazib borish maqsadga muvofiqliр.

Yozuv jarayonida o’quvchilar ruchkani to’g’ri ushlashni, daftarni to’g’ri qo’yishni, harfni yozishda yozuv chiziqlari, ular bo’ylab qo’lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga qanday ulash, qatorga sig’ish-sig’ masligini mo’ljallashi lozim.

Yozuv jarayonida o’quvchi ruchkani qog’oz ustida sekin, ishonchsizlik bilan qimirlatadi, bir harfni yozib to’xtaydi va namuna bilan solishtiradi, ba’zan chiziqdan chiqib ketadi, noto’g’rilarini bo’yab, to’g’rilaydi.

Savod o’rgatish metodlarining qiyosiy-tanqidiy tahlili

Eski maktabda o’qish bilan yozish bir vaqtida o’rgatilmagan, avval faqat o’qish o’rgatilgan. O’qish hijo (bo’g’in) usuli bilan o’rgatilgan. O’qishga o’rgatishning “hijjai qadimiy” deb atalgan usuli uzoq vaqlar davomida hech qanday o’zgarishsiz davom etib kelgan.

Hijo usulida o’qishga o’rgatishni 3 bosqichga bo’lish mumkin:

1-bosqich. Harflarning nomini yodlatish (“harfiy metod”). Bu metodning mohiyati quyidagilardan iborat bo’lgan: bir necha yildan beri o’qiyotgan bolalar maktabxonaga yangi kelgan bolaga bir necha kichik-kichik surani og’zaki yodlatgan. Bola aytayotgan suradagi so’zlarining ma’nosini tushunmay, suralarni birin-ketin yodlab olgan, bu orada taxminan bir yilga yaqin vaqt o’tgan. SHundan keyin arab alifbosi yodlatila boshlangan; bola uyidan har ikki tomoni randalanib silliqlangan maxsus taxta olib kelgan. Maktabdor taxtaning bir tomoniga qora siyoh bilan 28 ta arabcha harfning yolg’iz shaklini alifbo tartibida bandlarga bo’lib yozib bergan.

Maktabdor birinchi banddagi harflarning nomini *alif, be, te, se* deb aytgan. Bola domлага ergashib takrorlagan, ayta olmasa, domla yana aytgan va shuni yaxshilab o’rganishni vazifa qilib topshirgan. Bola birinchi bandni yodlab olgach, ikkinchi bandni shu tariqa yodlagan va hok. Bolalar 28 harf nomini 5-6 oyda zo’rg’a bilib olganlar, ularning ko’pchiligi harflarning nomini yodlab olsalar ham, qaysisi *be* (✉), qaysisi *se* (✉) ekanini ko’rsatib bera olmaganlar. Ayrim domlalar, otinoyilar yosh bolalarning eslab qolishiga yordam berish maqsadida har bir harf uchun shartli iboralar o’ylab topganlar (l-uzunchoqqina alif, ✉ - bittagina *be*, ✉ - ikkitagina *te*, ✉ - uchtagina *se* kabi).

2-bosqich. Bo’g’in hosil qilish. Harflar nomi yodlab bo’lingach, bo’g’in hosil qilishga, ya’ni “*zeru-zabar*” ni o’rgatishga o’tilgan. Eski maktabda “*zeru-zabar*” (zabar, zer, pesh) har xil o’rgatilgan. Masalan, ba’zi domlalar ✉ (*be, zabar-ba, be-zer-bi, be-pesh-bu, te-zabar-ta*) va hok. kabi o’rgatsalar, boshqalari *be zabar ba, te zabar ta* kabi, yana birovlar *be-zabar-a; zer-i, pesh-u; te-zabar-a, zer-i, pesh-u* va hok. deb o’rgatganlar. Arabcha matnlarni o’qish uchun “*zeru zabar*”ni bilish juda zarur bo’lgan, ammo o’qishga o’rgatish anglab o’qishga asoslanmagani uchun bolalar mim zabar ma, mim zer mi, mim pesh mu deb yodlaganlar, “*zeru zabar*”ning mohiyatini anglamaganlar.

3-bosqich. Bo’g’inlarni qo’shish. Eski maktabda bo’g’inlarni qo’shish “*abjad*” bilan boshlangan. Maktabdor taxtaning ikkinchi tomoniga arab tili alfavitidagi 28 ta harf jamlangan 8 so’zni “*zeru zabar*” bilan yozib bergan. Bolalar bu 8 ta so’zni birin-ketin hijo usulida o’qib yodlab olganlar. Masalan, *abjad* so’zi *alifga zabar qo’yib, bega urishtirilsa ab, Jimga zabar qo’yib, dolga urishtirilsa jad*, bularning ikkisidan abjad hosil bo’lgan.

Abjaddan keyin eski maktab o’quv kitobi bo’lgan “Haftiyak”ka o’tilgan. “Haftiyak”dagi suralar ham “Abjad”dagi kabi hijo usulida o’qitilgan. Bolalar “Haftiyak”ning bir betini hijo usulida o’qish uchun juda ko’p vaqt va kuch sarflaganlar.

Turkistonda ochilgan rus-tuzem maktablari savod o’rgatishda ma’lum darajada ijobiy o’rin tutdi. Rus-tuzem maktablarinnng o’zbekcha sinflarida o’zbekcha xat-savod o’rgatish metodi 1900-yildan boshlab asta-sekin isloh qilindi: hijo metodidan tovush metodiga o’tildi. 1900-yillardan rus-tuzem maktabi o’zbekcha sinflarining peshqadam muallimlari tovush metodi asosida tuzilgan tatarcha alifbedan foydalana boshladilar. Bu kitobning tili va mazmuni o’zbekcha sinflarga mos kelmas edi. 1902-yilda Saidrasul Saidazizovning tovush metodi talabiga muvofiq tuzilgan ona tili alifbesi - “Ustodi avval” nashr etildi. “Ustodi avval” nashr qilingandan keyin o’zbekcha xat-savod o’rgatishda yangi davr boshlandi. Tovush metodi savod o’rgatishning eski usulidan tamomila farq qilib, o’qitishni osonlashtirdi, ta’limni bola tushunadigan, anglaydigan ta’limga, ya’ni faol ta’limga aylantirdi.

“Ustodi avval” 3 bo’limdan iborat edi: 1-bo’lim, hozirgi atama bilan ataganimizda, alifbe davridir. Muallif bu bo’limda arab alfavitidagi harflarni alfavit tartibida emas, balki harf orqali ifodalangan tovushning talaffuzi oson-qiyinligini harflarning yozilishi sodda yoki murakkabligini e’tiborga olgan holda tizib chiqqan. Muallif har bir harfning yozuvda bir necha xil shaklda kelishi xat-savod o’rgatishni qiyinlashtirishini hisobga olgan; alifbe davrining boshida deyarli har doim bir xil shaklda qo’llanadigan harflarni bergen. U shakli yozilish o’rniga qarab turlicha bo’ladigan harflarning so’z boshida, so’z o’rtasida, so’z oxirida va alohida yozilish shaklini berib, ularga mos misollar keltirgan. Masalan, **q** harfini tanitish uchun *qor*, *uyqu*, *oq* so’zlarini, **g’** harfini tanitish uchun *g’or*, *uyg’oq*, *tog’* so’zlarini tanlagan. Muallif soddadan murakkabga tamoyiliga amal qilib, alifbe davrini asta-sekin murakkablashtira borgan. Kitobning alifbe qismiga, asosan, o’zbek tilining lug’at tarkibidagi so’zlar tanlab olingan.

“Ustodi avval”ning 2-bo’limi alifbedan keyingi davrdir. Bu bo’limda hikoya, masal va 50 maqola berilgan. Ularning ayrimlarida bilim olish targ’ib qilinsa, boshqalari tarbiyaviy mazmunda bo’lgan.

S. Saidazizov kitobining 3-bo’limini “Alifboi qur’on” deb atagan va o’z oldiga bolalarga “qur’on”ni tushunib olishga o’rgatishni maqsad qilib qo’yan.

Umuman, tovush metodi Markaziy Osiyoga ikki manbadan yoyilgan:

1. Rus-tuzem maktablari ruscha sinflarida xat-savod tovush metodi bilan o’rgatilar edi. O’zbekcha sinf muallimlari tovush metodi oson va qulayligini amalda o’z ko’zları bilan ko’rganlar va asta-sekin tovush metodini o’z sinflariga ta’biq eta boshlaganlar.

2. XIX asrning oxiridan boshlab Rossiyanadan Markaziy Osiyoga kelgan tatar muallimlari, ya’ni jadidlar tovush metodida xat-savod o’rgata boshlagan edilar, oradan

ko’p o’tmay, bir qancha mahalliy muallimlar ular kabi yangi maktablar ochadilar va bolalarga xat savodni tovush metodi asosida o’rgata boshlaydilar.

Shunday qilib, O’rta Osiyoda tovush metodi asta-sekin hijo metodining o’rnini egallay boshlagan.

Ma’lumki, tovush metodi bilan xat-savod o’rgatishga Rossiyada K.D.Ushinskiy asos solib, u sintetik tovush metodini qat’iy himoya qilgan.

Tovush metodi bilan savod o’rgatilganda, so’zning eng kichik bo’lagi, ya’ni nutq tovushlari asos qilib olinadi. So’zning ma’nosini o’zgartira oluvchi har bir tovush yozuvda harf orqali ifodalanishi: so’zda tovushlar almashinishi, ortishi yoki kamayishi natijasida boshqa bir yangi so’z hosil bo’lishi mumkinligi bolalar ongiga yetkaziladi. Keyingi yillarda ham xat-savod tovush metodida o’rgatilmoqda. Atoqli metodistlar (S.P.Redazubov, A.I.Voskresenskaya, K. Qosimova, Y.Abdullaev, O. SHarafiddinov va boshq.) tovush metodida xat-savod o’rgatishni takomillashtirdilar.

Arab alifbosida yozuvni o’rgatish qiyin bo’lgan. Bu alifbodagi harflar so’zda qo’llash o’rniga qarab, har xil shaklda yozilgan, bu yozuvni o’rganishni qiyinlashtirgan. SHuning uchun ko’p maktablarda bolalarga o’qish o’rgatilib yozuv o’rgatilmagan, chunki domla va otinoyilarning ko’pchiligi o’qishni bilib, yozishni bilmagan.

Eski maktabda yozish chiziqsiz tekis oq qog’ozga dastlab yo’g’onroq savag’ich qalamda o’rgatilgan; bolalar yozishni ozroq o’rganganlaridan keyin qamish qalamda ham yozishgan, ularga ruchkada yozishga ruxsat etilmagan.

Yozishni o’rgatish alifbo tartibida harflarning alohida-alohida shaklini yozdirishdan boshlangan. Avval *alifni* yozish o’rgatilgan, keyin o’xhash shaklli harflar bandlarga bo’linib, o’xhash unsuri bo’lmaganlari esa ayrim-ayrim yozdirilgan. Ba’zi domlalar ayrim harflarning elementlarini yozishni ham alohida mashq qildirganlar.

Shundan keyin harflarni nusxaga qarab alifbo tartibida katta-katta qilib yozish (bu *mufradot* (sarhad) deyilgan: bunday yozish bir-ikki yilga cho’zilgan) o’rgatilgan.

SHundan keyin harflarni bir-biriga qo’shib yozish mashqi boshlangan. Bu mashqni *murakkabbot* deyilgan. Harflarni bir-biriga qo’shib yozish mashqi bir necha bosqichga bo’linib, harf birikmalarining ma’no anglatish-anglatmasligi umuman e’tiborga olinmagan, qanday qo’shilish mashq qilinaverган. Ko’pgina eski maktablarda bunday mashq “abjad yozish” bilan tugallangan.

Murakkabbottdan keyin bayt, qit’a va ruboilylarni ko’chirib yozish mashqi boshlangan. Bu mashqni *muqattaot* deyilgan. Bu mashqqa ham juda ko’p vaqt sarflangan; u ma’noli so’zlarni yozish bilan boshlanib, *duoyi salom* (insho) yozish bilan tugallangan. Bola *duoyi salom* yozishni bilsa, “xati chiqqan” hisoblangan.

Yozuvni o’rgatish va husnixat mashq qildirishda “**Mufradot**” kitobidan foydalanilgan. Bu kitobchada har uchala mashq turi, ba’zi nashrlarda esa insho namunalari berilgan.

Eski mакtabda yozuvga o’rgatishning birdan-bir yo’li ko’chirib yozuv - nusxa ko’chirish hisoblangan, natijada bolada yozma nutq ko’nikmasi hosil qilinmagan. Bu mashq bolani juda zeriktirgan, hech o’ylanmasdan yozishga odatlantirgan. Maktabxonada ijodiy ko’chirib yozuv mashqlarining, shuningdek, boshqa usullarning qo’llanilmaganligi orqasida bola chiroyli ko’chirib yozish ko’nikmasini hosil qilgan bo’lsa ham, o’z fikrini yozma ifoda qila olmagan, eng oddiy jumlalarni ham zo’r-bazo’r xato bilan yozgan.

Eski maktablarda, madrasalarda o’zbek tili o’qitilmagan, natijada eski maktab bolalarigina emas, hatto madrasada bir necha yil umr o’tkazgan ba’zi bolalar ham o’z ismini to’g’ri yozishni bilmaganlar.

Arabchada to’g’ri, chiroyli yozuvga o’rgatish uchun xivalik shoир SHermuhammad Avazbiy o’g’li Munisning (1778-1829) “Savodi ta’lim” kitobidan foydalanilgan.

Rus-tuzem maktablarida o’qish va yozishni o’rgatish, odatda, bir vaqtida boshlanib, bir-biriga bog’lab olib borilgan, har kuni avval o’qish, keyin yozuv darsi bo’lgan; o’qish va yozish onglilik tamoyili asosida o’rgatilgan; bolalar qaysi tovush, bo’g’in, so’z yoki gapni o’qiyotgan yoki yozayotganini aniq tasavvur qilgan, ma’nosiga tushungan, arabcha harfning yolg’iz shaklini yoxud biror harfning elementini yozayotganligini ongli ravishda bilgan.

Rus-tuzem maktablarining o’zbekcha sinfida ko’chirib yozishga va diktantga ko’p vaqt sarf etilgan. Bular dan tashqari, insho (turli tilxat, duoi salom va savdo ishiga oid har xil xatlar) yozishga ham o’rgatilgan.

Savod o’rgatishda analitik-sintetik tovush metodi

Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. SHu bois analitik-sintetik tovush metodi an’anaviy hamda shakllanish, tashkil topish jarayonida vujudga kelgan tamoyillarga ega.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonida bo’lgan tamoyillari quyidagilardir:

1. *Ta’lim jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan*: savod o’rgatish jarayonida o’quvchilarga differensial va individual yondashish (bu bolaning umumiy rivojlanishi hamda o’qish va yozishga tayyorligiga bog’liq).

2. *O’qitishning istiqboli nuqtayi nazaridan*: grammatika, so’z yasalishi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish.

3. Psixolingistik nuqtayi nazaridan: tovush va harfni o'qitishning qulay usulini izlash, tovush va harflarning mosligini, osonligini, ta'limning tarbiyaviy va o'stiruvchi xarakterini hisobga olish.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga tarbiya ham berib boriladi. Tarbiyalash didaktikaning muhim tamoyillaridandir. Maktabda axloqiy tarbiya beriladi, ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi. Bolalar darsda ommaviy siyosiy tushunchalarni egallaydilar.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Babayeva D. R. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi. –Toshkent: Barkamol fayz media, 2018.
2. Fayzullayeva M, Rahimova Z, Rustamova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish. –Toshkent, 2010.
3. Safarova R. va boshqalar. Savodga o'rgatish darslari.–Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
4. Shodiyeva Q. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni tog'ri talaffuzga o'rgatish”. Toshkent. “O'qituvchi”, 1990.
5. Shodiyeva Q. O'rta guruhlarda bolalar nutqini o'stirish.–Toshkent: O'qituvchi,1993.

MASHINA MEXANIZMLAR NAZARIYASI.

Raximova Ixlas Raxmatovna

Urganch Davlat Universiteti

Texnika fakulteti Fakultetlararo umumtexnika fanlari kafedrasi

stajor o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola aqlii tizimlarni boshqaradigan asosiy tamoyillarni ochishga qaratilgan mashina mexanizmi nazariyasining murakkab sohasiga kirib boradi. Adabiyotlarni keng qamrovli tahlil qilish orqali turli modellar, usullar va algoritmik paradigmalar o'rganiladi. Tadqiqot kognitiv jarayonlar va neyron tarmoqlar orqasidagi mexanizmlarni sinchkovlik bilan tekshirishni o'z ichiga oladi va sun'iy intellektning murakkab ishlashi haqida tushuncha beradi. Usullar bo'limida aqlii tizimlarni ishlab chiqishda asosiy yondashuvlar, natijalar bo'limida esa ularni amalga oshirish natijalari keltirilgan. Muhokama bo'limi topilmalarni tanqidiy baholaydi, bu esa ushbu rivojlanayotgan sohada kelajakdagi tadqiqotlar uchun yakuniy mulohazalar va takliflarga olib keladi.

Kalit So'zlar: Mashina mexanizmi nazariyasi, sun'iy intellekt, mexanik modellar, kognitiv jarayonlar, neyron tarmoqlar, algoritmik paradigmalar, aqlii tizimlar.

Mashina mexanizmi nazariyasi zamonaviy sun'iy intellektning asosi bo'lib xizmat qiladi va aqlii tizimlarni boshqaradigan mexanizmlarni tushunish uchun nazariy asos yaratadi. Texnologiya taraqqiyoti sifatida ushbu mexanizmlarning murakkabligini ochish uchun izlanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola aqlii tizimlarning ishlashiga hissa qo'shadigan turli xil tarkibiy qismlarga oydinlik kiritib, mashina mexanizmi nazariyasi bo'yicha mavjud adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan.

Mashina mexanizmi nazariyasining mohiyatini tushunish uchun mavjud adabiyotlarni o'rganish kerak. Ko'plab tadqiqotlar inson miyasining asab arxitekturasidan Ilhom olib, kognitiv jarayonlarni simulyatsiya qiladigan mexanik modellarni taklif qildi. Qoidalarga asoslangan tizimlardan tortib neyron tarmoqlarigacha aqlni taqlid qilish uchun turli xil algoritmik paradigmalar ishlatilgan. Adabiyot, shuningdek, ushbu modellar bilan bog'liq muammolar va cheklowlarni ta'kidlab, sohadagi yutuqlar va bo'shliqlarning yaxlit ko'rinishini ta'minlaydi.

Usullar bo'limida mashina mexanizmi nazariyasiga asoslangan aqlii tizimlarni ishlab chiqishda qo'llaniladigan turli xil yondashuvlar ko'rsatilgan. Klassik ramziy sun'iy intellektdan zamonaviy mashinani o'rganish texnikasiga qadar ushbu bo'lim mexanistik modellarni qurishda qo'llaniladigan metodologiyalar haqida umumiyl

ma'lumot beradi. Unda algoritmlar, ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash va o'qitish paradigmalarining roli muhokama qilinadi, bu esa mashina mexanizmi nazariyasini amalga oshirishda ishtirok etadigan texnik jihatlarni har tomonlama tushunishni taklif qiladi.

Nazorat ostida o'rganish: nazorat ostida o'rganishda algoritm belgilangan ma'lumotlar to'plamida o'rnatiladi, bu yerda kirish ma'lumotlari tegishli chiqish yorliqlari bilan bog'langan. Maqsad-algoritm kirish va chiqishlar orasidagi xaritalashni o'rganish, unga bashorat qilish yoki yangi, ko'rinxmaydigan ma'lumotlarni tasniflash imkonini beradi.

Nazoratsiz o'rganish: nazoratsiz o'rganish yorliqsiz ma'lumotlar bilan shug'ullanadi, bunda algoritm aniq ko'rsatmalarsiz ma'lumotlar ichida naqsh yoki tuzilmalarni topishi kerak. Klasterlash va o'lchovni kamaytirish nazoratsiz o'rganishda keng tarqagan vazifalar bo'lib, ma'lumotlardagi yashirin munosabatlar yoki guruhlarni ochishga yordam beradi.

Mustahkamlashni o'rganish: mustahkamlashni o'rganish atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lgan va mukofot yoki jazo shaklida fikr-mulohaza olish orqali qaror qabul qilishni o'rganadigan agentni o'z ichiga oladi. Agent vaqt o'tishi bilan jami mukofotni maksimal darajada oshirishni maqsad qilib, o'z harakatlarini oldingi harakatlarning oqibatlari asosida o'zgartiradi.

O'quv ma'lumotlari: mashinani o'rganish modellari naqshlarni o'rganish va umumlashtirish uchun o'quv ma'lumotlarini talab qiladi. O'quv ma'lumotlarining sifati va miqdori modelning ishlashiga sezilarli ta'sir qiladi. Ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash, shu jumladan tozalash va normallashtirish, ko'pincha o'quv jarayonini yaxshilash uchun zarurdir.

Xususiyat muhandisligi: xususiyat muhandisligi modelning ishlashini yaxshilash uchun tegishli xususiyatlarni (kirish o'zgaruvchilari) tanlash, o'zgartirish yoki yaratishni o'z ichiga oladi. Yaxshi ishlab chiqilgan xususiyatlar modelning ma'lumotlardagi mazmunli naqshlarni olish qobiliyatini oshirishi mumkin.

Modelni baholash: modelning ishlashini baholash juda muhim. Aniqlik, aniqlik, eslash va F1 ballari kabi ko'rsatkichlar odatda tasniflash vazifalari uchun ishlatiladi, o'rtacha kvadratik xato yoki r-kvadrat regressiya vazifalari uchun ishlatilishi mumkin. Model yangi ma'lumotlarga yaxshi umumlashtirilishini ta'minlash uchun o'zaro tekshirish qo'llaniladi.

Ortiqcha moslash va kam moslash: ortiqcha moslash model o'quv ma'lumotlarini juda yaxshi o'rganganda, shovqinni ushlab turganda va yangi ma'lumotlarda yomon ishlashni keltirib chiqarganda sodir bo'ladi. Underfitting, boshqa tomonidan, bir model ma'lumotlar asosiy naqsh qo'lga olish uchun juda oddiy bo'lsa sodir bo'ladi. Ushbu muammolarni muvozanatlash mashinani o'rganishning samarali modellarini yaratish uchun juda muhimdir.

Giperparametrlarni Sozlash: Mashinada o'rganish algoritmlarida ko'pincha giperparametrlar mavjud bo'lib, ular mashg'ulotdan oldin o'rnatilishi kerak. Giperparametrni sozlash modelning ishlashini yaxshilash uchun ushbu parametrlar uchun optimal qiymatlarni tanlashni o'z ichiga oladi.

Joylashtirish va Monitoring: treningdan so'ng yangi, ko'rinxmaydigan ma'lumotlar bo'yicha bashorat qilish uchun mashinani o'rganish modeli ishga tushiriladi. Modelning ishlashi qoniqarli bo'lishini ta'minlash uchun doimiy monitoring zarur va ma'lumotlarni tarqatishdagi o'zgarishlarga moslashish uchun qayta tayyorlash zarur bo'lishi mumkin.

Axloqiy mulohazalar: mashinani o'rganish bo'yicha amaliyotchilar ta'lim ma'lumotlari,adolatlilik, oshkorlik va ular yaratgan modellarning potentsial ijtimoiy ta'siri kabi axloqiy ta'sirlarni hisobga olishlari kerak. Axloqiy mashinalarni o'rganish amaliyoti zararni kamaytirishga va AI texnologiyalaridan mas'uliyatli foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Munozara bo'limi natijalarni tanqidiy baholaydi, mashina mexanizmi nazariyasining kuchli va zaif tomonlarini ko'rib chiqadi. Bu topilmalarning oqibatlari va ularning sun'iy intellektning keng sohasi bilan bog'liqligini o'rganadi. Modellarning axloqiy mulohazalari, izohlanishi va umumlashtirilishi sinchkovlik bilan o'ganilib, nazariyaning amaliy natijalarini nozik tushunishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, mashina mexanizmi nazariyasi aqlii tizimlarni rivojlantirishda hal qiluvchi asos bo'lib xizmat qiladi. Muhim yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, qiyinchiliklar davom etmoqda va bu keyingi tadqiqotlarni talab qiladi. Ushbu maqola fanlararo hamkorlik va axloqiy mulohazalar zarurligini ta'kidlab, kelajakdag'i tadqiqotlar uchun yo'llarni taklif qiladi. Texnologiya rivojlanib borar ekan, mashina mexanizmlarini chuqurroq tushunish, shubhasiz, sun'iy intellektning traektoriyasini shakllantiradi.

Aslini olganda, ushbu maqola aqlii tizimlarning doimiy rivojlanayotgan landshaftiga sarmoya kiritgan tadqiqotchilar, amaliyotchilar va ixlosmandlar uchun qimmatli tushunchalarni taklif qiluvchi mashina mexanizmi nazariyasi uchun keng qamrovli qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ubaydullayev S. Механизм ва машиналар фанини ўргатишга тизимий ёндошув //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
2. Ubaydullayev S. Материаллар қаршилиги фанини ўқитишининг янги информацион технологияси //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
3. Ubaydullayev S. Программно-методическая система и мониторинг преподавания дисциплины «Машиноведение» //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.

4. Туракулов, Х. А., Убайдуллаев, С., Туракулов, О. Х., & Хамидов, Д. А. Программно-методическая система и мониторинг преподавании дисциплины «Машиноведение».
5. Yo'ldoshev M. et al. Talabalar texnik ijodkorligida tadqiqot ob"ektlariga qo"yiladigan talablar //Физико-технологического образования. – 2021. – №. 2.
6. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Каримов, О. О., & Юлдашев, М. (2019). Педагогические основы обеспечения стабильности роста и развития системы научно-технического творчества студентов (Модель" Руководитель-УчастникТворческая деятельность"). Поволжский педагогический поиск, (2), 112-119

O‘ZBEK VA TURKMAN TILLARIDA MORFOLOGIYA BO‘LIMI

*Ajiniyoz nomidagi NDPI
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-kurs magistranti Xummedova O‘g‘ilnavot*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbek va turkman tillarida “Morfologiya” bo‘limining qiyosiy aspektini bilib olasiz ya’ni ikki tilda qiyoslanishi. Morfologiya bo‘limida so‘zlarning ikki tilda guruhlarga ajratilishi, nomlanishi qay yo‘sinda bo‘lishini bilib olasiz.

Kalit so‘zlar. Morfologiya, so‘z turkumlar, mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar, ot, sifat, son, fe’l, olmosh, ravish

O‘zbek tilida so‘zlarning grammatik ma’nolari va ularni ifodalovchi grammatik shakllarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi – morfologiyadir.

Morfologiya (yunoncha **morphe** – «*shakl*», **logos** – «*ta’limot*») so‘z va uning grammatik xususiyatlari haqidagi ta’limotdir. Morfologiyada so‘zning morfologik tuzilishi, yangi shakl va ma’nolar hosil qilishi bilan bog‘liq qonun-qoidalar o‘rganiladi. Morfologiyada so‘zlar mushtarak yoki farqli belgilari umumlashtirilgan holda turkumlarga ajratib o‘rganiladi. So‘z leksikologiyada leksik birlik sifatida, morfologiyada esa grammatik birlilik sifatida o‘rganiladi.

Ma’lumki, morfologiya bo‘imi tilimizdagi mavjud so‘zlar grammatik, leksik belgilariga ko‘ra so‘z turkumlariga ajratib o‘rganadi.

Turkman tilida morfologiya tilning grammatik qurilishini, xususiyatlarini o‘rganadigan bo‘limidir.

Turkman tilida ”Morfologiya” atamasi **morphe** – ”*şekil*”(*shakl*), **logos** – ”*düşünje*” (*tushuncha*), *ylym*(*ilm*), *taglymat* (*ta’limot*)” degan ma’nolarni anglatadi. Turkman tilida morfologiya so‘zlarning mushtarakligini, shakllarini, ularning qaysi so‘z turkumiga tegishlilagini va so‘z turkumlarining har biriga maxsus grammatik kategoriyalarni o‘rgatadi. Morfologiya sintaksis bilan birgalikda grammatikani amalga oshiradi.

So‘z turkumlari so‘zlarning mohiyatini ya’nada yaxshiroq anglash uchun, avvalo, garammatik ma’no, grammatik shakl hamda grammatik kategoriyalarni bilish lozim.

O‘zbek tilida so‘zlarning u yoki bu turkumga mansubligini ifodalovchi ma’no hamda so‘zning lug‘aviy ma’nosiga qo‘shilgan qo‘shimcha ma’no **grammatik ma’no** deb yuritiladi.

Xususiy grammatik ma’noning yozuvdagi ifodasiga **grammatik shakl** deb yuritiladi.

Bir-biriga qiyosan olingan xususiy grammatik ma'nolar va ularning yozuvdagi ifodasi, grammatik shakllar tizimiga **grammatik kategoriya** deyiladi

Turkman tilida ”grammatik *kategoriya*”, ”grammatik many” deya nomlanadi.

Turkman tilidagi qoidalari:

”*Grammatik kategoriya*” – grammatik yo'l bilan ifodalaydigan bir xil grammatik hodisalarni, shakllarning jamlanmasi (son kategoriysi, zamon, shaxs-son, daraja kategoriysi....);

”*Grammatik many*” – so‘zning leksik ma’nosidan farqlanib, uning grammatik ma’no va shakllarining qaysi so‘z turkumiga, zamonga, darajaga tegishli ekanligini anglatishi;

O‘zbek tilida so‘zlarning ma'lum bir so‘roqqa javob bo‘ib, umumiy grammatik ma’no ifodalashiga ko‘ra, guruhlarga ajratilishiga **so‘z turkumlari** deyiladi. Turkman tilida so‘z turkumlari ”**söz topary**” deya nomalanadi. Ikki tilda so‘z turkumlarining farqli tomoni shundaki, o‘zbek tilida uchta guruhga ajratiladi, turkman tilida esa katta ikkita guruhga ajratiladi. O‘xhash tomonlari shundaki, o‘zbek tilida ham jami 12 ta so‘z turkumi, turkman tilida ham 12 ta so‘z turkumi mavjud. Ammo ularni guruhlashda farq mavjud.

O‘zbek tilida so‘z turkumlari ma’no va vazifasiga ko‘ra quydagi guruhlarga bo‘linadi:

- 1. Mustaqil so‘zlar**
- 2. Yordamchi so‘zlar**
- 3. Oraliqdagi so‘zlar**

O‘zbek tilida **mustaqil so‘zlar** deb atash ma'noli so‘zlar (masalan, predmed, belgi, miqdor, harakat-holat kabi ma'noga ega so‘zlar) yoki ular o‘rnida qo‘llanilib ma'lum so‘roqlarga javob bo‘luvchi va gapda ma'lum gap bo‘lagi vazifasida keluvchi so‘zlardir. Masalan, gul- nima?, chol-kim?, chiroyli- qanday?, yuztacha- nechta?, keldi-nima qildi?.

Mustaqil so‘z turkumlari:

- 1. Ot**
- 2. Sifat**
- 3. Son**
- 4. Fe'l**
- 5. Olmosh**
- 6. Ravish**

Yordamchi so‘zlar ma'lum so‘roqqa javob bermaydigan, atash ma'nosiga ega bo‘lmagan, faqat grammatik ma’no ifodalovchi, lekin o‘zidan oldin kelgan so‘zga grammatik shakl sifatida qo‘silib, u bilan birga lug‘aviy urg‘u ostida birlashmaydigan so‘zlardir. Masalan, *ammo, faqat, ham, -chi, -mi kabi*.

Yordamchi so‘z turkumlari:

1.Ko‘makchi

2. Yuklama

3. Bog‘lovchi

Mustaqil so‘zlarga ham, yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan, ularning har ikkisiga xos belgini o‘z ida ma'lum darajada aks ettiradigan oraliqdagi so‘zlar ham bor. Masalan, *hay-hay, oh, uf, pish-pish, piq-piq, jiz, dir-dir, albatta, attang, afsus kabi*.

Alohida olingan so‘zlar:

1.Undov so‘zlar

2. Modal so‘zlar

3.Taqlid so‘zlar

Turkman tilida so‘zlar bir-biridan anglatadigan ma’nolari, morfologik tuzilishi hamda sintaktik tuzilishi tubdan farq qiladi. Shunga ko‘ra so‘zlar guruhlarga ajratiladi:

1. ”Esasy söz toparlary”

2. ”Kömekçi söz toparlary”

Turkman tilidagi “esasy söz toparlary” – leksik ma’noga ega bo‘lib, real haqiqatdagи turli hodisalarни, tushunchalarni bildiradi. Masalan, otlar predmetni, sifatlar uning belgisini, sonlar miqdorini, tartibini, fe’llar ish-harakatni, ravishlar ish-harakatning vaqtini, o‘rnini, holatini bildiradi. Bu so‘z turkumiga kiradigan so‘zlar so‘z yasalishiga xizmat qiladi.

“Esasy söz toparlary” deya ajratilgan guruhga kiradigan so‘z turkumlarining turkman tilda nomlanishi:

1. ”Atlar”

2. ”Sypatlar”

3. ”Sanlar”

4. ”Çalyşmalar”

5. ”Işlikler”

6. ”Hallar “

“Kömekçi söz toparlary” – bu so‘zlar gapda faqat ko‘makchi vazifasida kelganligi sababli mustaqil so‘z turkumi bo‘la olmaydi. Chunki ular grammatic kategoriyaga ega emas ya’ni so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘srimchalar bilan yasalmaydi. “Kömekçi söz toparlary” guruhiga kiruvchi so‘zlar va ularning turkman tilida nomlanishi:

1. ”Sözsoňy kömekçiler”

2. ”Baglaýjy”

3. ”Ownuk bölekler”

4. ”Ümlükler”

5. ”Modal sözler”

6. ”Ses we şekil meñzetmeleri”

Ko‘rib turganimizdek, ikki tilda so‘z turkumlarining guruhlarga ajralishida farqlar mavjud. O‘zbek tilida uchta guruhga ajratilsa, turkman tilida ikkita guruhga ajratiladi. Ularning nomlnishida ham farq va o‘xshashliklar mavjuddir. Ammo mustaqil so‘z turkumlari va yordamchi so‘z turkumlarining qonun-qoidalari, mazmuni juda o‘xshashdir, xil desak Keling chizma va tushunarli olaylik.

O‘zbek Turkman mustaqil nomlanishi

Ot so‘z turkumi	Atlar	qisman bir ham bo‘ladi.
Sifat so‘z turkumi	Sypatlar	pastdagि orqali sodda qilib anglab
Son so‘z turkumi	Sanlar	
Fe’l so‘z turkumi	Işlikler	va tillarida
Olmoshlar	Çalışmalar	so‘zlarning
Ravish so‘z turkumi	Hallar	

O‘zbek va turkman tillarida yordamchi so‘zlarning nomlanishi

Ko‘makchi	Sözsoň kömekçiler
Bog‘lovchi	Baglayýjy
Yuklama	Ownuk bölekler
Undov so‘zlar	Ümlükler
Modal so‘zlar	Modal sözler
Taqlid so‘zlar	Ses we şekil meňzetmeleri



Xulosa qilib shuni aytish lozimki, morfologiya bo‘limini qiyoslashdan maqsad o‘quvchilarga, talabalarga ya’ni bilim oluvchi barchaga ikki tildagi o‘zbek va turkman tillardagi grammatikani o‘rgatish, solishtirish, farqlash, o‘xshash va farqli jihatini yoritib berish, o‘z tillarida bemalol ikkinchi tilni oson va qulay o‘rgatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N, Nurmonov A. O ‘zbek tilining nazariy grammatikasi — T.: “O‘qituvchi”, 1995
2. Shamsieva.M O‘rta maktablarda uyushiq bo‘lakli gaplami o‘rgatish.Qo‘llanma. - T.: 1991.
3. Davlat ta’lim standarti, 1998
4. Házırkı zaman türkmen dili. morfologiá. Ýokary we orta hünär okuw mekdepleri üçin okuw gollanmasy – A.: Türkmen döwlet neşirýat gullugy, 2015.
5. Gurbanguly Berdimuhamedow. Döwlet adam üçindir. Aşgabat, 2007
6. Türkmenistanyň Prezidenti Gurbanguly Mälikgulyýewiç Berdimuhamedow. Gysgaça terjimehal, Aşgabat, 2007
7. Gurbanguly Berdimuhamedow. Döwlet guşy. Aşgabat, 2013
8. Türkmen dili. Morfologiá. Ýokary okuw mekdepleri üçin okuw kitaby. – A.: Türkmen döwlet neşirýat gullugy, 2018
9. Amonov U. Ona tili (Morfologiya).- T.: “Durdona” nashriyoti, 2021
10. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. “Universitet”, -T.: 2007.
11. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov, Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “O‘qituvchi”, -T.: 1980.
12. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “O‘zbekiston”, -T.: 1992

O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI

Abdulxayeva Malikaxon

Qo‘qon universiteti magistri

